




OLIIY TA'LIM
TASHKILOTLARI
**MILLIY
REYTINGI**



OLIIY TA'LIM
TASHKILOTLARINING

ILMIY NASHRLAR FAOLLIGI VA XALQARO IQTIBOS TA'SIRI

2025 yil Scopus ma'lumotlari asosida
axborot-tahliliy sharh



QISQARTMALAR, ASOSIY ATAMALAR VA SHARTLI BELGILAR

OTT – oliy ta'lim tashkiloti.

TOP-1000 – xalqaro reytinglarda birinchi 1000 ta o'rin doirasida qayd etilgan universitetlar toifasi.

Scopus – taqrizdan o'tgan ilmiy adabiyotlar bo'yicha referativ va iqtiboslar ma'lumotlar bazasi.

Scopus tashkilot profili – OTTning turli nom va affiliatsiya variantlarini birlashtirib, unga tegishli ilmiy nashrlar va iqtibos ko'rsatkichlarini jamlovchi profil.

Scopus Affiliation Identifier – Scopus bazasida tashkilot profiliga beriladigan yagona raqamli identifikator.

CiteScore – jurnalda muayyan to'rt yillik davrda chop etilgan ilmiy materiallarga keltirilgan iqtiboslarning o'rtacha ko'rsatkichi.

CiteScore Percentile – jurnalning CiteScore ko'rsatkichi asosida tegishli fan sohasidagi boshqa jurnallarga nisbatan egallagan o'rnini 0–99 foizlik shkalada ifodalovchi ko'rsatkich.

Citation Percentiles – ilmiy nashrlarni fan sohasi, nashr yili va hujjat turi bo'yicha iqtiboslanganlik darajasiga ko'ra foizlik guruhlariga ajratish ko'rsatkichi.

Q1 – birinchi kvartil; CiteScore Percentile bo'yicha 75–99 oralig'ida joylashgan, ya'ni tegishli fan sohasidagi eng yuqori 25 foiz jurnallar.

Q2 – ikkinchi kvartil; CiteScore Percentile bo'yicha 50–74 oralig'ida joylashgan jurnallar.

Q3 – uchinchi kvartil; CiteScore Percentile bo'yicha 25–49 oralig'ida joylashgan jurnallar.

Q4 – to'rtinchi kvartil; CiteScore Percentile bo'yicha 0–24 oralig'ida joylashgan jurnallar.

Top 10% – tegishli fan sohasi, nashr yili va hujjat turi bo'yicha eng ko'p iqtibos keltirilgan ilmiy nashrlarning yuqori 10 foizlik guruhi.

Top 1% – tegishli fan sohasi, nashr yili va hujjat turi bo'yicha eng ko'p iqtibos keltirilgan ilmiy nashrlarning yuqori 1 foizlik guruhi.

SciVal – Elsevier kompaniyasining ilmiy faoliyat, hamkorlik va iqtibos ta'sirini tahlil qilish platformasi.

REF – Research Excellence Framework Buyuk Britaniyada ilmiy tadqiqotlar sifatini baholash tizimi.

COPE – Committee on Publication Ethics – Nashrlar etikasi qo'mitasi.

DOI – Digital Object Identifier ilmiy nashr yoki boshqa raqamli ob'yektning doimiy raqamli identifikatori.

ORCID – Open Researcher and Contributor ID tadqiqotchi va muallifning yagona raqamli identifikatori.

Crossref-Retraktion Watch – retraksiya, tuzatish, xavotir bildirish va nashrni qayta tiklash holatlariga oid metama'lumotlar bazasi.

Retraksiya – ilmiy nashrning ishonchliligi yoki ilmiy etika bilan bog'liq asoslar mavjud bo'lganda uni ilmiy muomaladan rasman qaytarib olish jarayoni.

PO'T – professor-o'qituvchilar tarkibi.

Mundarija

I. KIRISH.....	6
1.1. Tahlilning dolzarbligi.....	6
1.2. Tahlilning maqsadi va vazifalari	7
1.3. Tahlil obyekti va qamrovi	8
1.4. Ma'lumotlar manbasi va tahlil davri	9
II. ILMIY NASHRLAR FAOLLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	10
2.1. Ilmiy nashrlar faolligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar	10
2.2. Scopus va tashkilot profili tushunchasi	11
2.3. Respublika va OTTlar kesimidagi ma'lumotlarni hisoblash xususiyatlari	12
2.4. OTTlarni toifalarga ajratish mezonlari.....	13
2.5. Ilmiy nashrlar faolligi indeksini hisoblash metodikasi	14
2.6. Reyting balini me'yorlashtirish tartibi	15
III. O'ZBEKISTONDA ILMIY NASHRLAR FAOLLIGINING 2023–2025 YILLARDAGI DINAMIKASI.....	17
3.1. Ilmiy nashrlar umumiy sonining o'zgarishi	17
3.2. Q1 jurnallaridagi ilmiy nashrlar dinamikasi.....	18
3.3. Top 10% toifasidagi ilmiy nashrlar dinamikasi	20
3.4. Top 1% toifasidagi ilmiy nashrlar dinamikasi.....	21
3.5. Ilmiy nashrlarning jurnallar kvartillari bo'yicha tarkibi	22
3.6. Asosiy xulosalar.....	24
IV. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI ILMIY NASHRLAR FAOLLIGINING QIYOSIY TAHLILI	26
4.1. Tahlilga kiritilgan OTTlarning umumiy tavsifi	26
4.2. OTTlar toifalari bo'yicha ilmiy nashrlar soni.....	26
4.3. OTTlar toifalari bo'yicha jurnallar kvartillarining qiyosiy tahlili	28
4.4. Top 10% va Top 1% ko'rsatkichlari bo'yicha qiyosiy tahlil.....	30
4.5. PO'T soniga nisbatan ilmiy natijadorlik.....	32
4.6. OTTlar toifalarining ilmiy faolligidagi asosiy farqlar	33
4.7. Asosiy xulosalar.....	35
V. TOP–1000 UNIVERSITETLARI VA MILLIY ILMIY YETAKCHILAR.....	37
5.1. TOP–1000 toifasidagi universitetlarning umumiy tavsifi.....	37
5.2. Ilmiy nashrlar soni va sifat tarkibi	37
5.3. Xalqaro iqtibos ta'siri	38
5.4. Ilmiy natijadorlikning nisbiy ko'rsatkichlari	39
5.5. Milliy ilmiy yetakchilar.....	40
5.6. Asosiy xulosalar.....	43
VI. AMALIY TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKIOTLARI	45

6.1. Ilmiy nashrlar faolligining umumiy tavsifi	45
6.2. Ilmiy nashrlar faolligi bo'yicha yetakchilar	45
6.3. Sifat va iqtibos ko'rsatkichlari.....	46
6.4. Reyting natijalari	49
6.5. Asosiy xulosalar.....	54
VII. TIBBIYOT TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI.....	56
7.1. Ilmiy nashrlar faolligining umumiy tavsifi	56
7.2. Ilmiy nashrlar faolligi bo'yicha yetakchilar	56
7.3. Sifat va iqtibos ko'rsatkichlari.....	57
7.4. Tibbiyot toifasidagi OTTlarning reyting natijalari	60
7.5. Asosiy xulosalar.....	64
VIII. IJTIMOY-GUMANITAR TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI	66
8.1. Toifaning umumiy tavsifi	66
8.2. Ilmiy nashrlar faolligi bo'yicha yetakchilar	66
8.3. Nashrlar tarkibi va xalqaro iqtibos ta'siri.....	69
8.4. Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlarning reyting natijalari	71
8.5. Asosiy xulosalar.....	80
IX. IJOD (SPORT) TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI	81
9.1. Toifaning umumiy tavsifi	81
9.2. Ilmiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.....	81
9.3. Reyting natijalari	82
9.4. Asosiy xulosalar.....	85
X. TIZIMLI FARQLAR VA ILMIY YETAKCHILIK.....	86
10.1. OTTlar toifalari bo'yicha yetakchi natijalar.....	86
10.2. Ilmiy nashrlar faolligi bo'yicha milliy yetakchilar	87
10.3. Ilmiy nashrlar faolligining OTTlar kesimida jamlanishi	88
10.4. Ilmiy nashrlar faolligi cheklangan OTTlar	89
10.5. Scopus tashkilot profili mavjud bo'lmagan OTTlar.....	90
10.6. Asosiy xulosalar	90
XI. ILMIY NASHRLAR FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALIY TAVSIYALAR	92
11.1. Ilmiy nashrlar sifatini oshirish	92
11.2. Ilmiy halollik va retraksiya qilingan nashrlarni monitoring qilish	92
11.3. Xalqaro iqtibos ta'sirini kuchaytirish	94
11.4. Ilmiy nashrlar faolligi cheklangan OTTlarni qo'llab-quvvatlash.....	94
11.5. Scopus tashkilot profillarini tartibga solish	95
11.6. Xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish	96
11.7. OTTlar toifalariga mos tabaqalashtirilgan yondashuvlarni joriy etish	96
XII. YAKUNIY XULOSA	98

1-ilova	100
SCOPUS TASHKILOT PROFILI MAVJUD BO'LMAGAN OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI RO'YXATI.....	100
2-ilova	104
MILLIY REYTING TALABLARIGA MUVOFIQ REYTINGDA ISHTIROK ETMAYDIGAN OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI RO'YXATI.....	104
FOYDALANILGAN MANBALAR.....	106

I. KIRISH

1.1. Tahlilning dolzarbligi

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida **ilmiy faoliyat natijadorligi** OTTlarning **akademik salohiyati, xalqaro raqobatbardoshligi** va **global ilmiy makonga integratsiyalashuv darajasini** belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot natijalarining nufuzli xalqaro jurnallarda e'lon qilinishi, ularning ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi va iqtibos keltirish ko'rsatkichlari oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini baholashda alohida ahamiyat kasb etadi.

OTTlarning ilmiy nashrlar faolligini faqat nashrlar soni bilan baholash yetarli emas.

Tahlilda nashrlar chop etilgan jurnallarning kvartillari, Top 10% va Top 1% toifalaridagi ishlar hamda PO'T soniga nisbatan natijalar ham hisobga olinadi.

Bu ko'rsatkichlar nashrlar hajmi, tarkibi va iqtibos ta'sirini birgalikda baholash imkonini beradi.

Scopus ma'lumotlari asosida amalga oshiriladigan tahlil OTTlarning ilmiy nashrlar soni, jurnallar kvartillari, yuqori iqtibos ko'rsatkichlariga ega ilmiy ishlari va umumiy iqtibos ta'sirini yagona yondashuv asosida baholash imkonini beradi.

Bu esa respublika miqyosidagi umumiy tendensiyalarni aniqlash bilan bir qatorda, **alohida OTTlar** va **ularning toifalari o'rtasidagi natijadorlik tafovutlarini** qiyosiy o'rganish uchun axborot asosini shakllantiradi.

Oliy ta'lim tizimida ilmiy faoliyatni rivojlantirish, yuqori sifatli nashrlar ulushini oshirish va xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan jarayonlar OTTlarning ilmiy natijalarini muntazam va tizimli baholash zaruratini kuchaytirmoqda.

Ayni paytda OTTlarning ixtisoslashuvi, ilmiy yo'nalishlari, PO'T soni va tadqiqot infratuzilmasidagi farqlar natijalarni **toifalar kesimida tahlil qilishni** taqozo etadi.

Shu bois, OTTlarning Scopus bazasidagi ilmiy nashrlar faolligi va iqtibos ta'sirini kompleks tahlil qilish ilmiy natijadorlikning mavjud holatini baholash, yetakchi tashkilotlarni aniqlash, tizimli tafovutlarni ochib berish hamda ilmiy

faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan asoslangan takliflarni ishlab chiqish uchun dolzarb ahamiyatga ega.

1.2. Tahlilning maqsadi va vazifalari

Tahlilning maqsadi – OTTlarning Scopus bazasida qayd etilgan nashrlar faolligi va iqtibos ta'sirini baholash. Shuningdek, 2023–2025 yillardagi o'zgarishlar, OTTlar toifalari o'rtasidagi farqlar va 2025 yil natijalari bo'yicha toifa doirasidagi reyting o'rinlari aniqlanadi.

Bunda 2023–2024 yillarga oid ma'lumotlar ilmiy nashrlar faolligidagi o'zgarishlar va tarkibiy tendensiyalarni qiyosiy tahlil qilish uchun qo'llaniladi.

OTTlarning milliy reyting ballari va tegishli toifa doirasidagi yakuniy o'rinlari faqat 2025 yil ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi va milliy reyting natijalari sifatida e'lon qilinadi.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

ilmiy nashrlar faolligini baholashda qo'llaniladigan **asosiy tushunchalar va ilmiy ko'rsatkichlarni** tizimlashtirish;

Scopus bazasidan foydalanish, tashkilot profilini shakllantirish hamda respublika va OTTlar kesimidagi natijalarni hisoblashning **metodologik xususiyatlarini** yoritish;

OTTlarni toifalarga ajratish mezonlari va qiyosiy baholashning **umumiy tamoyillarini** belgilash;

O'zbekistonda 2023–2025 yillardagi **ilmiy nashrlar umumiy sonining dinamikasini** tahlil qilish;

Q1–Q4 jurnallarida, shuningdek, Top 10% va Top 1% toifalarida chop etilgan nashrlar orqali **ilmiy natijalarning sifat tarkibidagi o'zgarishlarni** baholash;

OTTlarning ilmiy nashrlar faolligi, nashrlar sifati va iqtibos ta'sirini **toifalar kesimida qiyosiy tahlil qilish**;

PO'T soniga nisbatan ilmiy nashrlar natijadorligini baholash va **yetakchi OTTlarni aniqlash**;

ilmiy nashrlar faolligi indeksi va **reyting ballarini hisoblash**, OTTlarning toifa doirasidagi yakuniy o'rinlarini belgilash;

ilmiy nashrlar faolligining ayrim OTTlarda jamlanish darajasi, natijadorligi cheklangan OTTlar va Scopus tashkilot profiliga ega bo'lmagan OTTlar bilan bog'liq **tizimli tafovutlarni aniqlash**;

ilmiy nashrlar sifatini oshirish, iqtibos ta'sirini kuchaytirish va OTTlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan **amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish**.

Belgilangan maqsad va vazifalar ilmiy nashrlar faolligini faqat miqdoriy ko'rsatkichlar asosida emas, balki **nashrlar sifati, iqtibos ta'siri, OTTlarning nisbiy ilmiy natijadorligi va milliy reytingdagi o'rni** nuqtai nazaridan kompleks baholash imkonini beradi.

1.3. Tahlil obyekti va qamrovi

Tahlil obyekti **OTTlarning Scopus bazasidagi ilmiy nashrlar faolligi va iqtibos ko'rsatkichlari** tashkil etadi.

Tahlilda OTTlarning ilmiy nashrlar soni, jurnallar kvartillari bo'yicha taqsimoti, yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlari, PO'T soniga nisbatan ilmiy natijadorligi va milliy reytingdagi qiyosiy o'rni o'rganiladi.

Tahlilning asosiy qamroviga **milliy reytingda ishtirok etuvchi va Scopus tashkilot profiliga ega bo'lgan 105 ta OTT** kiritilgan.

Ularning 2025 yildagi ilmiy nashrlar faolligi reyting ko'rsatkichlarini hisoblash va tegishli toifa doirasidagi yakuniy o'rinlarni aniqlash uchun asos sifatida qabul qilingan.

Umumiy tendensiyalarni aniqlash uchun **2023–2025 yillardagi** ilmiy nashrlar dinamikasi tahlil qilingan.

Biroq OTTlarning milliy reyting ballari va o'rinlari faqat **2025 yil** ko'rsatkichlari asosida shakllantiriladi.

Shuningdek, tahlil qamrovini to'liq baholash maqsadida **Scopus tashkilot profili mavjud bo'lmagan 63 ta OTT** hamda **milliy reytingda ishtirok etmaydigan 32 ta OTT** to'g'risidagi ma'lumotlar alohida ko'rib chiqiladi. Mazkur OTTlar asosiy reyting hisob-kitoblariga kiritilmaydi, biroq ilmiy nashrlar faolligini baholashdagi qamrov cheklovlarini ochib berishda inobatga olinadi.

Tahlil respublika, OTTlar toifalari va alohida ta'lim tashkilotlari darajasida amalga oshirilib, **ilmiy nashrlar hajmi, sifat tarkibi, iqtibos ta'siri va nisbiy ilmiy natijadorlikni** o'zaro bog'liq holda baholashni qamrab oladi.

1.4. Ma'lumotlar manbasi va tahlil davri

Tahlilning asosiy axborot manbasi sifatida **Scopus bazasi ma'lumotlaridan** foydalanilgan. Ushbu baza asosida O'zbekiston Respublikasi va alohida OTTlarga affiliatsiyalangan ilmiy nashrlar, jurnallar kvartillari, yuqori iqtibos ko'rsatkichlariga ega ilmiy ishlar hamda iqtibos keltirilganlik natijalari shakllantirilgan.

OTTlarning ilmiy nashrlar faolligi **2026 yil 30 iyun holatiga Scopus** bazasidan olingan ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Ushbu ma'lumotlar milliy reytingning **2025 yil yakunlari bo'yicha natijalarini** hisoblashda qo'llanilgan.

Respublika miqyosidagi ilmiy nashrlar faolligining o'zgarishini baholash maqsadida **2023–2025 yillarga oid Scopus ma'lumotlari** ham qiyosiy tahlil qilingan.

OTTlarning toifalari, milliy reytingda ishtirok etish holati va PO'T soniga oid ko'rsatkichlar **milliy reytingni yuritish doirasida shakllantirilgan ma'lumotlar** asosida qabul qilingan.

Tahlilning normativ-huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Milliy agentlik)ning Adliya vazirligida 2026 yil 28 fevralda 3783-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan buyrug'i bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingini yuritish to'g'risidagi nizom tashkil etadi.

Ilmiy nashrlar faolligi mazkur nizomda nazarda tutilgan **«Scopus ma'lumotlar bazasida indekslangan jurnallarda chop etilgan maqolalar» indikatori** doirasida baholanadi.

Shunday qilib, tahlil davri 2023–2025 yillardagi umumiy dinamikani qamrab olsa-da, OTTlarning reyting ballari va e'lon qilinadigan milliy reytingdagi yakuniy o'rinlari 2025 yil natijalari asosida belgilanadi.

II. ILMIY NASHRLAR FAOLLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI

2.1. Ilmiy nashrlar faolligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar

Mazkur tahlilda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar va ilmiy ko'rsatkichlar quyidagi mazmunga ega.

Scopus bazasidagi ilmiy nashr – Scopus bazasida indekslangan ilmiy ishni anglatadi. Ushbu tushuncha maqolalar, ilmiy sharhlar, konferensiya materiallari va Scopus tizimi tomonidan hisobga olinadigan boshqa turdagi ilmiy nashrlarni qamrab oladi.

Ilmiy nashrlar faolligi – muayyan davrda Scopus bazasida qayd etilgan nashrlarning hajmi va kvartil hamda iqtibos ko'rsatkichlari bo'yicha tarkibini ifodalovchi umumiy tushuncha.

Ilmiy nashrlar soni – muayyan davrda **Scopus** bazasida indekslangan va tegishli OTTga affiliatsiyalangan ilmiy ishlarning umumiy miqdorini anglatadi. Ushbu ko'rsatkich ilmiy faoliyat ko'lamini ifodalasa-da, OTTning ilmiy natijadorligini to'liq baholash uchun nashrlar sifati va iqtibos ta'siri bilan birgalikda talqin qilinishi lozim.

Professor-o'qituvchilar tarkibi (PO'T) – asosiy ish joyi va ichki o'rindoshlik asosida faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilar soni.

Iqtibos ko'rsatkichi – ilmiy nashrlarga Scopus bazasida indekslangan boshqa ilmiy ishlar tomonidan iqtibos keltirilish darajasini aks ettiradi. Iqtiboslar soni nashrlarning ilmiy hamjamiyatdagi ta'siri va ularda keltirilgan natijalardan keyingi tadqiqotlarda foydalanilganlik darajasini baholash imkonini beradi.

Jurnal kvartili – tegishli fan sohasidagi ilmiy jurnalning nisbiy o'rnini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, jurnallar to'rtta guruhga ajratiladi:

Q1 – birinchi kvartil. CiteScore Percentile (iqtibos ko'rsatkichi) bo'yicha 75–99 oralig'ida joylashgan, ya'ni tegishli fan sohasidagi eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan 25 foiz jurnallari;

Q2 – ikkinchi kvartil. CiteScore Percentile (iqtibos ko'rsatkichi) bo'yicha 50–74 oralig'ida joylashgan, o'rtadan yuqori darajadagi jurnallar;

Q3 – uchinchi kvartil. CiteScore Percentile (iqtibos ko'rsatkichi) bo'yicha 25–49 oralig'ida joylashgan, o'rtadan past darajadagi jurnallar;

Q4 – to‘rtinchi kvartil. CiteScore Percentile (iqtibos ko‘rsatkichi) bo‘yicha 0–24 oralig‘ida joylashgan, sohadagi eng quyi ko‘rsatkichli jurnallar.

Q1 va Q2 jurnallarida chop etilgan ilmiy ishlar nashr faoliyatining nisbatan yuqori sifat segmentini ifodalaydi. Biroq jurnal kvartili alohida maqolaning ilmiy sifatini bevosita belgilamaydi, u, avvalo, maqola chop etilgan jurnalning tegishli fan sohasidagi nisbiy mavqeini ko‘rsatadi.

Top 10% (Citation Percentiles) – tegishli ilmiy soha, nashr yili va hujjat turi bo‘yicha iqtibos darajasiga ko‘ra dunyodagi eng ko‘p iqtibos keltirilgan ilmiy ishlarning 10 foiziga kiruvchi nashrlarni anglatadi. Bu ko‘rsatkich ilmiy natijalarning xalqaro ta‘siri va ilmiy hamjamiyatlardagi talabgirlik darajasini tavsiflaydi.

Top 1% (Citation Percentiles) – tegishli ilmiy soha, nashr yili va hujjat turi bo‘yicha dunyodagi eng ko‘p iqtibos keltirilgan ilmiy ishlarning 1 foiziga kiruvchi nashrlarni ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich yuqori iqtibos ta‘siriga ega tadqiqot natijalarini aniqlashda qo‘llaniladigan eng yuqori iqtibos ta‘sirini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Mazkur ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash OTTlarning ilmiy faolligini **nashrlar hajmi**, **sifat tarkibi** va **iqtibos ta‘siri** nuqtai nazaridan kompleks baholash imkonini beradi.

2.2. Scopus va tashkilot profili tushunchasi

Scopus ilmiy adabiyotlarni indeksatsiya qilish, mualliflar va tashkilotlarning nashrlar faolligini tizimlashtirish hamda iqtibos ko‘rsatkichlarini shakllantirish imkonini beruvchi xalqaro referativ va ilmiy-metrik ma‘lumotlar bazasidir.

Mazkur tahlilda Scopus ma‘lumotlaridan OTTlarning ilmiy nashrlar soni, jurnallar kvartillari, yuqori iqtibos ta‘siriga ega ishlari va umumiy iqtibos ko‘rsatkichlarini baholash uchun foydalaniladi.

Scopus tashkilot profili – nashrlardagi affiliatsiya ma‘lumotlari asosida algoritmik va ekspert tarzda shakllantiriladigan ma‘lumotlar yozuvi.

Unda tashkilotga affiliatsiyalangan mualliflar, ilmiy nashrlar, iqtibos ko‘rsatkichlari va ilmiy faoliyatga oid boshqa ilmiy-metrik ma‘lumotlar jamlanadi.

Scopus tashkilot profili OTTning turli yillar va ilmiy yo‘nalishlardagi natijalarini yagona tashkilot doirasida umumlashtirish imkonini beradi.

OTTga tegishli ilmiy nashrlarni aniqlashda muallif tomonidan nashrda ko'rsatilgan **tashkiliy affiliatsiya** asosiy ahamiyatga ega. Nashrlar va iqtibos ko'rsatkichlarining Scopus tashkilot profilida to'g'ri aks etishi OTT nomi va affiliatsiya ma'lumotlarining Scopus tizimida to'g'ri birlashtirilganiga bog'liq. Shu sababli Scopus tashkilot profilining to'liq va tartibga solingan bo'lishi OTT ilmiy natijalarini xolis baholashning muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur tahlil va reyting hisob-kitoblarida Scopus tashkilot profilining mavjudligi asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Scopus tashkilot profiliga ega bo'lmagan OTTlarning ilmiy nashrlarini tashkilot kesimida to'liq va ishonchli shakllantirish imkoniyati cheklangani sababli ular reyting hisob-kitoblariga kiritilmaydi.

Xorijiy universitet filiali natijalari faqat filialning o'ziga tegishli Scopus tashkilot profili aniqlangan taqdirda alohida hisoblanadi, bosh tashkilot profili filial profili sifatida qabul qilinmaydi.

Bu yondashuv ularning ilmiy nashrlar faolligi va iqtibos ta'sirini boshqa OTTlar bilan yagona metodologik asosda qiyoslash imkonini beradi.

Shunday qilib, Scopus tashkilot profili mazkur tahlilda OTTning ilmiy nashrlari va iqtibos ko'rsatkichlarini birlashtiruvchi **asosiy hisob birligi** vazifasini bajaradi.

2.3. Respublika va OTTlar kesimidagi ma'lumotlarni hisoblash xususiyatlari

Respublika va OTTlar kesimidagi ilmiy nashrlar ko'rsatkichlari turli hisoblash usullari asosida shakllantiriladi. Shu sababli ushbu ikki darajadagi ma'lumotlarni qiyoslashda nashrlarni hisobga olish usullaridagi farqni inobatga olish zarur.

Respublika bo'yicha statistika O'zbekiston Respublikasiga affiliatsiyalangan va **Scopus** bazasida indekslangan **takrorlanmaydigan ilmiy nashrlar soni** asosida shakllantiriladi. Bunda har bir ilmiy nashr, unda ishtirok etgan mualliflar va tashkilotlar sonidan qat'i nazar, respublika ko'rsatkichida bir marta hisobga olinadi.

OTTlar kesimidagi tahlilda esa **Scopus tashkilot profiliga** biriktirilgan nashrlar hisobga olinadi. Agar nashrda bir nechta OTT affiliatsiyasi ko'rsatilgan bo'lsa, u har bir tegishli OTT ko'rsatkichida alohida hisobga olinadi.

Shuning uchun OTTlar bo'yicha hisoblangan nashrlar yig'indisi respublika miqyosidagi takrorlanmaydigan nashrlar sonidan yuqori bo'lishi mumkin.

Xususan, 2025 yilda respublika bo'yicha **10 771 ta takrorlanmaydigan ilmiy nashr** qayd etilgan. OTTlar kesimida hisoblangan nashrlar yig'indisi esa **18 424 tani** tashkil etgan.

Bu tafovut ma'lumotlardagi xatoni yoki bir nashrning asossiz takror hisoblanganini anglatmaydi. U turli hisoblash usullari qo'llanilgani bilan izohlanadi: bir xil nashr respublika ko'rsatkichida bir marta, OTTlar bo'yicha yig'indisida esa unda ko'rsatilgan har bir OTT affiliatsiyasi bo'yicha hisobga olinadi.

Shu bois respublika bo'yicha 2023–2025 yillardagi dinamikani tahlil qilishda takrorlanmaydigan ilmiy nashrlar sonidan foydalaniladi. OTTlarning 2025 yilgi ilmiy nashrlar faolligi indeksleri va reyting ballarini hisoblashda esa OTTlar kesimida shakllantirilgan ko'rsatkichlar asos qilib olinadi.

Ushbu metodologik farq respublika miqyosidagi umumiy tendensiyalar va alohida OTTlarning ilmiy nashrlar faolligini to'g'ri talqin qilishda hisobga olinishi lozim.

2.4. OTTlarni toifalarga ajratish mezonlari

OTTlarning ilmiy nashrlar faolligini qiyosiy baholashda ularning ixtisoslashuvi, ta'lim yo'nalishlari va ilmiy faoliyat xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Turli fan sohalarida tadqiqot olib borish, natijalarni e'lon qilish va iqtibos olish amaliyoti bir-biridan farq qiladi. Shu sababli barcha OTTlarni yagona guruh doirasida qiyoslash natijalarning noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Milliy reytingda ishtirok etuvchi OTTlar kadrlar tayyorlash yo'nalishlari, talabalar kontingenti tarkibi va amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlarining xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi toifalarga ajratiladi:

xalqaro reytinglarning TOP–1000 taligiga kirgan mahalliy universitetlar (keyingi o'rinlarda – TOP–1000 universitetlar);

amaliy toifadagi OTTlar;

tibbiyot toifasidagi OTTlar;

ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar;

ijod (sport) toifasidagi OTTlar.

OTTlarni toifalarga ajratish o'xshash ta'lim va ilmiy faoliyat xususiyatlariga ega tashkilotlarni o'zaro qiyoslash, sohalarga xos nashr amaliyotini hisobga olish hamda reyting natijalarini to'g'ri talqin qilishga xizmat qiladi.

Shu sababli OTTlarning reyting ballari har bir toifa doirasida alohida hisoblanadi va reytingdagi o'rinlari ham tegishli toifa bo'yicha aniqlanadi.

2.5. Ilmiy nashrlar faolligi indeksini hisoblash metodikasi

OTTning ilmiy nashrlar faolligi indeksi Oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingini yuritish to'g'risidagi nizomda belgilangan tartibda hisoblanadi.

Indeksni hisoblashda nashrlar soni ularning jurnal kvartillari va iqtibos ta'siri ko'rsatkichlari bo'yicha vaznlanadi. Hosil bo'lgan natija OTTdagi PO'T soniga nisbatan ifodalanadi.

OTTlarning 2025 yil yakunlari bo'yicha ilmiy nashrlar faolligi indeksi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K = (12T_1 + 10T_2 + 8T_3 + 6T_4 + 4T_5 + T_6) / T_p$$

bunda:

K – OTTning ilmiy nashrlar faolligi indeksi;

T₁ – Top 1% toifasiga kirgan nashrlar soni;

T₂ – Top 10% toifasiga kirgan nashrlar soni;

T₃ – Q1 jurnallaridagi nashrlar soni;

T₄ – Q2 jurnallaridagi nashrlar soni;

T₅ – Q3 jurnallaridagi nashrlar soni;

T₆ – Q4 jurnallaridagi nashrlar soni;

T_p – asosiy ish joyida va ichki o'rindoshlik shartlarida faoliyat yurituvchi PO'Tning umumiy soni.

Formulaning surati oltita ko'rsatkichning vaznlashtirilgan yig'indisidan iborat. Top 1%, Top 10%, Q1, Q2, Q3 va Q4 ko'rsatkichlariga mos ravishda 12, 10, 8, 6, 4 va 1 vazn koeffitsiyentlari qo'llaniladi.

Top 1%, Top 10% va Q1–Q4 bir-birini istisno qiluvchi toifalar emas. Top 1% toifasidagi nashr Top 10% toifasiga ham kiradi. Shuningdek, jurnal kvartili

aniqlangan har bir nashr Q1–Q4 ko'rsatkichlaridan biriga kiritiladi. Shu sababli bir nashr formulaning bir nechta tarkibiy qismida aks etishi mumkin.

Masalan, Top 1% toifasiga kirgan va Q1 jurnalda chop etilgan nashr Top 1%, Top 10% va Q1 ko'rsatkichlarida hisobga olinadi. Bunday nashr formulaning suratiga jami 30 vazn birligi – 12, 10 va 8 koeffitsiyentlari orqali hissa qo'shadi. Bu formulaning jamlanma vaznlash usulidan kelib chiqadi.

Shu bois formulaning surati takrorlanmaydigan nashrlar sonini emas, balki jurnal kvartillari va iqtibos ta'siri ko'rsatkichlari bo'yicha vaznlashtirilgan nashr natijasini ifodalaydi. Formulada ko'rsatilgan toifalarning birortasiga kirmagan nashrlar indeks suratiga qo'shilmaydi.

Vaznlashtirilgan natija OTTdagi PO'T soniga bo'linadi. Bu usul turli miqyosdagi OTTlarni qiyoslashda professor-o'qituvchilar soni ta'sirini qisman kamaytiradi. Masalan, PO'T soni ko'p bo'lgan yirik OTTda nashrlarning umumiy soni yuqori bo'lishi mumkin, ammo PO'T soniga nisbatan vaznlashtirilgan natija pastroq chiqishi ehtimoli ham mavjud.

Indeks bir nafar professor-o'qituvchi shaxsan nechta nashr tayyorlaganini ko'rsatmaydi. U OTTning vaznlashtirilgan ilmiy nashrlar natijasini PO'T soniga nisbatan ifodalovchi tashkilot darajasidagi qiyosiy ko'rsatkichdir.

K indeksining yuqori qiymati OTTning PO'T soniga nisbatan vaznlashtirilgan ilmiy nashrlar natijasi yuqoriligini anglatadi. Biroq bu ko'rsatkich alohida maqolalarning ilmiy sifatini yoki OTT faoliyatining umumiy samaradorligini to'liq ifodalamaydi.

K indeksi reytingdagi yakuniy ball emas. OTTning reyting bali indeks qiymatini tegishli toifa doirasida me'yorlashtirish orqali hisoblanadi.

2.6. Reyting balini hisoblash tartibi

OTTning ilmiy nashrlar faolligi bo'yicha hisoblangan **K indeksi** indikatorning dastlabki ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu indeks qiymatlari OTTlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri reyting bali sifatida qo'llanilmaydi.

Dastlab har bir toifada **K indeksi eng yuqori bo'lgan OTT aniqlanadi**. Uning indeks qiymati tegishli toifadagi eng yuqori natija K_m sifatida qabul qilinadi. Qolgan OTTlarning reyting ballari ularning K indeksi eng yuqori K indeks qiymatiga nisbati asosida hisoblanadi.

Reyting bali quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$B_i = (K_i / K_m) \times B_t$$

bunda:

B_i – indikator bo'yicha baholanayotgan ta'lim tashkilotiga berilgan ball;

K_i – baholanayotgan OTTning K indeksi;

K_m – tegishli toifada qayd etilgan eng yuqori indeks qiymati;

B_t – tegishli toifa uchun belgilangan maksimal ball.

Agar tegishli toifadagi har bir OTTning K indeksi nolga teng bo'lsa, ushbu toifadagi OTTlarga mazkur indikator bo'yicha 0 ball beriladi.

Toifalar uchun quyidagi maksimal ballar belgilangan:

amaliy va tibbiyot toifalaridagi OTTlar uchun – 5 balдан;

ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar uchun – 3 ball;

ijod (sport) toifasidagi OTTlar uchun – 2 ball.

Scopus tashkilot profili yoki indeksni hisoblash uchun zarur boshqa ma'lumotlar mavjud bo'lmagan OTTlar uchun K indeksi va reyting bali hisoblanmaydi hamda reyting o'rni nolga teng natija sifatida qayd etiladi.


III. O'ZBEKISTONDA ILMIY NASHRLAR FAOLLIGINING 2023-2025 YILLARDAGI DINAMIKASI

3.1. Ilmiy nashrlar umumiy sonining o'zgarishi

Scopus ma'lumotlari 2023–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasiga affiliatsiyalangan ilmiy nashrlar sonida izchil o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. Scopus bazasida indekslangan takrorlanmaydigan ilmiy nashrlar soni **2023 yilda 7 151 tani, 2024 yilda 8 822 tani, 2025 yilda esa 10 771 tani** tashkil etgan.

Tahlil davrida ilmiy nashrlar soni har ikki yil oralig'ida ham o'sishda davom etgan. 2024 yilda qayd etilgan o'sish 2025 yilda ham saqlanib, mazkur yil tahlil davridagi eng yuqori natija bilan yakunlangan.

Umuman, 2023–2025 yillarda Scopus bazasida indekslangan ilmiy nashrlar soni **3 620 taga yoki 50,6 foizga ko'paygan**. Boshqacha aytganda, ikki yil ichida respublika ilmiy nashrlarining umumiy hajmi 2023 yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,5 baravardan ortiq** darajaga yetgan. Tahlil davrida ilmiy nashrlar sonining izchil o'sishi kuzatilgan bo'lib, mazkur dinamika **1-rasmda** aks ettirilgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Scopus bazasida indekslangan ilmiy nashrlar sonining dinamikasi, 2023–2025 yillar

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Kuzatilgan o'sish O'zbekiston tadqiqotchilarining Scopus bazasidagi ilmiy nashrlar faolligi va xalqaro ilmiy maydondagi ko'rinishi kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, nashrlar umumiy sonining ko'payishi ilmiy natijalar sifatining avtomatik ravishda oshganini anglatmaydi.

Xalqaro reytinglar amaliyotida ham ilmiy faoliyatni faqat nashrlarning mutlaq soni asosida baholash yetarli deb qaralmaydi.

Xususan, **QS World University Rankings** metodologiyasida **Citations per Faculty** ko'rsatkichi universitet ilmiy nashrlarining iqtibos ta'sirini akademik xodimlar soniga nisbatan baholaydi. Bu turli miqyosdagi oliy ta'lim tashkilotlarini nisbiy ko'rsatkichlar asosida qiyoslash imkonini beradi.¹

Times Higher Education World University Rankings 2025 metodologiyasida esa **Research Quality** yo'nalishi Citation Impact, Research Strength, Research Excellence va Research Influence ko'rsatkichlarini qamrab oladi. Bunda iqtibos ma'lumotlari fan sohalari o'rtasidagi farqlarni hisobga olish maqsadida me'yorlashtiriladi.²

Mazkur yondashuvlar ilmiy natijadorlikni baholashda **nashrlar hajmi, iqtibos ta'siri va tashkilot miqyosini o'zaro bog'liq holda talqin qilish** zarurligini ko'rsatadi.

Shu sababli umumiy dinamikani jurnallar kvartillari hamda Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlar o'zgarishi bilan birgalikda tahlil qilish zarur.

3.2. Q1 jurnallaridagi ilmiy nashrlar dinamikasi

Ilmiy jurnallar kvartillari jurnallarning tegishli fan sohasi doirasidagi nisbiy mavqeini tavsiflovchi bibliometrik tasnif hisoblanadi. Mazkur tasnif ilmiy nashrlarni ular chop etilgan jurnallarning sohaviy mavqei bo'yicha tahlil qilish imkonini beradi.

Scopus metodologiyasida jurnallarning tegishli fan sohasidagi nisbiy mavqei **CiteScore Percentile** ko'rsatkichi asosida belgilanadi.

Unga ko'ra, **birinchi kvartil – Q1 toifasi CiteScore Percentile bo'yicha 75–99 oralig'ida joylashgan jurnallarni** qamrab oladi. Bir jurnal bir nechta fan sohasiga kiritilgan hollarda, uning har bir sohadagi foizlik o'rni va kvartil

¹ QS Quacquarelli Symonds. *QS World University Rankings: Methodology*.

URL: <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings/methodology> (23.07.2026).

² Times Higher Education. *World University Rankings 2025: Methodology*.

URL: <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/world-university-rankings-2025-methodology> (23.07.2026).


ko'rsatkichi alohida hisoblanishi mumkin. Shu sababli jurnal kvartillarini talqin qilishda tegishli fan sohasi va ko'rsatkich mansub bo'lgan yilni ham hisobga olish zarur.³

Q1 jurnallarida chop etilgan ilmiy nashrlar sonining o'zgarishi respublika ilmiy nashrlar faolligi tarkibida yuqori kvartilli jurnallarning o'rnini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlil natijalari Q1 jurnallarida chop etilgan ilmiy nashrlar soni 2023–2025 yillarda izchil va yuqori sur'atlarda o'sganini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich **2023 yilda 975 tani, 2024 yilda 1 653 tani, 2025 yilda esa 2 621 tani** tashkil etgan.

2024 yilda Q1 jurnallaridagi nashrlar soni 2023 yilga nisbatan **69,5 foizga**, 2025 yilda esa 2024 yilga nisbatan **58,6 foizga** oshgan. Umuman, tahlil davrida mazkur toifadagi ilmiy nashrlar soni **168,8 foizga** yoki **qariyb 2,7 baravarga ko'paygan**.

Q1 jurnallaridagi ilmiy nashrlar sonining yillar kesimidagi o'zgarishi **2-rasmda** aks ettirilgan.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Q1 jurnallarida chop etilgan ilmiy nashrlar sonining dinamikasi, 2023–2025 yillar

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

³ Elsevier. *CiteScore Journal Metric* — FAQs. Scopus Support Center. URL: https://service.elsevier.com/app/answers/detail/a_id/30562/~/_/citescore-journal-metric---faqs/ (23.07.2026).

Q1 jurnallaridagi nashrlar sonining o'sish sur'ati respublika bo'yicha ilmiy nashrlar umumiy sonining o'sish sur'atidan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu ilmiy nashrlar hajmining ko'payishi bilan bir qatorda, tadqiqot natijalarini **yuqori kvartilli jurnallarda e'lon qilish faolligi ham kuchayganini** ko'rsatadi.

Tahlil natijalari 2023–2025 yillarda O'zbekiston tadqiqotchilarining Q1 jurnallarida ilmiy nashrlar chop etish faolligi sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiyaning ilmiy natijalarning xalqaro ta'siri bilan birgalikda baholash maqsadida keyingi bo'limlarda **Top 10%** va **Top 1% toifalariga kiruvchi ilmiy nashrlar dinamikasi** tahlil qilinadi.

3.3. Top 10% toifasidagi ilmiy nashrlar dinamikasi

Iqtibos ta'siri bo'yicha **Top 10% toifasiga kiruvchi ilmiy nashrlar soni** tadqiqot natijalarining xalqaro ilmiy hamjamiyatdagi ta'siri va ko'rinuvchanligini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Elsevier kompaniyasining **SciVal metodologiyasida Outputs in Top Citation Percentiles** ko'rsatkichi ilmiy nashrlarning iqtiboslanganlik darajasi bo'yicha jahon miqyosidagi eng yuqori 1, 5, 10 va 25 foizlik guruhlariga kirishini baholashga xizmat qiladi. Soha bo'yicha me'yorlashtirish qo'llanilganda nashrning chop etilgan yili, hujjat turi hamda fan sohalari o'rtasidagi iqtibos olish xususiyatlari inobatga olinadi. Shu nuqtai nazardan, **Top 10% ko'rsatkichi** ilmiy nashrlarning faqat umumiy hajmini emas, balki ularning xalqaro miqyosdagi nisbiy iqtibos ta'sirini ham baholash imkonini beradi.⁴

Tahlil natijalari 2023–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasiga affiliatsiyalangan **TOP 10%** toifasidagi ilmiy nashrlar soni izchil o'sganini ko'rsatadi.

Jumladan, ushbu toifadagi nashrlar soni 2023 yilda **452 tani** tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda **779 taga** yetgan. Bir yil davomida ko'rsatkich **327 taga** yoki **72,3 foizga** oshgan.

2025 yilda **TOP 10%** toifasiga kiruvchi ilmiy nashrlar soni **1 156 tani** tashkil etib, 2024 yilga nisbatan **377 taga** yoki **48,4 foizga** ko'paygan. O'sish sur'ati 2024 yildagi **72,3 foizdan** 2025 yilda **48,4 foizga**, ya'ni **23,9 foiz**

⁴ Elsevier. *Research Metrics Guidebook: Research Metrics in SciVal — Methods and Use*. URL: https://supportcontent.elsevier.com/RightNow%20Next%20Gen/SciVal/ACAD_RL_ElsevierResearchMetricsBook_WEB.pdf (23.07.2026).

bandga pasaygan bo'lsa-da, iqtibos ko'rsatkichi yuqori bo'lgan nashrlarning mutlaq soni o'sishda davom etgan.

2023–2025 yillarda mazkur toifadagi nashrlar soni **452 tadan 1 156 taga**, ya'ni **704 taga** yoki **155,8 foizga** oshgan. Shu tariqa, 2025 yildagi ko'rsatkich 2023 yildagiga nisbatan qariyb **2,6 baravarni** tashkil etgan.

Qayd etilgan dinamika O'zbekiston Respublikasiga affiliatsiyalangan, jahon miqyosida yuqori iqtibos ta'siriga ega ilmiy nashrlar soni ortib borayotganini ko'rsatadi.

3.4. Top 1% toifasidagi ilmiy nashrlar dinamikasi

Top 1% toifasidagi ilmiy nashrlar tegishli fan sohasi, nashr turi va chop etilgan yili hisobga olingan holda iqtibos ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori bir foizlik guruhga kirgan tadqiqot natijalarini ifodalaydi. Shu jihatdan mazkur ko'rsatkich mamlakat ilmiy nashrlarining xalqaro miqyosdagi yuqori iqtibos ta'sirini baholash imkonini beradi.

Tahlil natijalari 2023–2025 yillarda Top 1% toifasidagi ilmiy nashrlar soni **bir maromda o'zgarmaganini** ko'rsatadi.


Jumladan, 2023 yilda ushbu toifada **45 ta** ilmiy nashr qayd etilgan bo'lsa, 2024 yilda ularning soni **91 taga** yetgan. Natijada bir yil ichida ko'rsatkich **46 taga** yoki **102,2 foizga** oshgan.

2025 yilda Top 1% toifasidagi ilmiy nashrlar soni **78 tani** tashkil etgan. Bu 2024 yilga nisbatan **13 taga** yoki **14,3 foizga kam**. Shunga qaramay, 2025 yil ko'rsatkichi 2023 yilga nisbatan **33 taga** yoki **73,3 foizga yuqori** bo'lib qolgan.

Mazkur dinamika yuqori iqtibos ta'siriga ega ilmiy nashrlar sonida sezilarli yillik tebranishlar mavjudligini ko'rsatadi. Bunday o'zgaruvchanlik, avvalo, Top 1% toifasining yuqori tanlovchanligi va undagi nashrlar mutlaq soni nisbatan kamligi bilan bog'liq. Shuningdek, ko'rsatkichga ilmiy nashrlarning fan sohalari bo'yicha tarkibi, iqtibos to'plash davri va alohida yuqori ta'sirli tadqiqotlar natijalari ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman, 2025 yilda kuzatilgan pasayishga qaramasdan, Top 1% toifasidagi ilmiy nashrlar soni 2023 yil darajasidan sezilarli yuqori saqlanib qolgan. Biroq mazkur toifada barqaror o'sish tendensiyasi shakllangani haqida xulosa chiqarish uchun ko'rsatkichni keyingi yillar davomida muntazam kuzatib borish zarur.

2023–2025 yillarda Top 10% va Top 1% toifalariga kiruvchi ilmiy nashrlar sonining o'zgarishi **3-rasmda** qiyosiy tarzda keltirilgan.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Top 10% va Top 1% toifalaridagi ilmiy nashrlar sonining dinamikasi, 2023–2025 yillar

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Mazkur dinamika yuqori iqtibos ta'siriga ega ilmiy nashrlar sonida turlicha tendensiyalar mavjudligini ko'rsatadi.

Top 10% toifasida barqaror o'sish kuzatilgan bo'lsa, Top 1% ko'rsatkichi yillar kesimida nisbatan o'zgaruvchan xususiyat kasb etgan.

3.5. Ilmiy nashrlarning jurnallar kvartillari bo'yicha tarkibi

Jurnal kvartillari ilmiy nashrlar e'lon qilingan jurnallarning tegishli fan sohasidagi iqtibos ko'rsatkichlari bo'yicha nisbiy mavqeini ifodalaydi.

Bunda **Q1 eng yuqori, Q4 esa nisbatan quyi kvartilni** anglatadi.

2025 yilda jurnal kvartili toifasi aniqlangan ilmiy nashrlarning umumiy soni **8 976 tani** tashkil etgan.

Shundan Q1 jurnallarida **2 621 ta** yoki **29,2 foiz**, Q2 jurnallarida **1 559 ta** yoki **17,4 foiz**, Q3 jurnallarida **1 733 ta** yoki **19,3 foiz**, Q4 jurnallarida esa **3 063 ta** yoki **34,1 foiz** ilmiy nashr chop etilgan.


Mazkur ma'lumotlar 2025 yilda kvartillar bo'yicha tasniflangan ilmiy nashrlar tarkibida Q4 jurnallaridagi nashrlar eng katta ulushga ega bo'lganini

ko'rsatadi. Shu bilan birga, Q1 jurnallarida chop etilgan nashrlar ulushi qariyb uchdan bir qismni tashkil etib, ikkinchi yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etilgan.

Q1 va Q2 jurnallaridagi nashrlar birgalikda **4 180 ta** yoki **46,6 foizni**, Q3 va Q4 jurnallaridagi nashrlar esa **4 796 ta** yoki **53,4 foizni** tashkil etgan.

Mazkur nisbat yuqori kvartilli jurnallardagi nashrlar salmog'i umumiy tarkibning qariyb yarmiga teng bo'lganini, biroq Q3 va Q4 jurnallaridagi nashrlar ulushi yuqori saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Ilmiy nashrlarning jurnallar kvartillari bo'yicha taqsimoti **4-rasmda** keltirilgan.



4-rasm. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Scopus bazasida indekslangan ilmiy nashrlarning jurnallar kvartillari kesimidagi tarkibi, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Kvartillar bo'yicha tahlil 2025 yildagi **10 771 ta ilmiy nashrning barchasini emas**, balki jurnal kvartillari bo'yicha tasniflangan **8 976 ta nashrni** qamrab oladi.

Shu sababli kvartillar kesimidagi ulushlarni umumiy nashrlar soniga emas, aynan kvartil toifasi mavjud bo'lgan nashrlar jamiga nisbatan talqin qilish metodologik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Jurnallar kvartillariga asoslangan natijalarni talqin qilishda xalqaro miqyosda qabul qilingan **ilmiy faoliyatni mas'uliyatli baholash tamoyillarini** ham inobatga olish zarur.

Leyden manifesti miqdoriy ko'rsatkichlar sifatga asoslangan ekspert baholashini to'ldirishi va qo'llab-quvvatlashi, shuningdek, fan sohalari o'rtasidagi tafovutlarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozimligini ta'kidlaydi.⁵

Ilmiy tadqiqotlarni baholash bo'yicha San-Fransisko deklaratsiyasi (DORA) esa jurnal darajasidagi ko'rsatkichlardan alohida maqolaning ilmiy sifatini yoki tadqiqotchining ilmiy faoliyatini baholashda yagona mezon sifatida foydalanmaslikni tavsiya etadi.⁶

Shu sababli mazkur sharhda Q1–Q4 kvartillari har bir ilmiy nashr sifatining mutlaq bahosi sifatida emas, balki nashrlar e'lon qilingan jurnallarning tegishli fan sohasidagi nisbiy mavqei va ilmiy nashrlar tarkibini tavsiflovchi ko'rsatkich sifatida talqin qilinadi.

Tahlil natijalari O'zbekistonga affiliatsiyalangan ilmiy nashrlar tarkibida Q1 va Q2 jurnallaridagi nashrlar salmoqli o'rin tutishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Q3 va Q4 jurnallaridagi nashrlar umumiy ulushining Q1 va Q2 jurnallaridagi nashrlar ulushiga nisbatan birmuncha yuqoriligi **yuqori kvartilli jurnallarda chop etilgan ilmiy nashrlar salmog'ini izchil oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini** anglatadi.

3.6. Asosiy xulosalar

Birinchidan, 2023–2025 yillarda O'zbekistonga tegishli **Scopus** bazasida indekslangan ilmiy nashrlar sonida **barqaror o'sish tendensiyasi** kuzatilgan.

Ilmiy nashrlar soni **7 151 tadan 10 771 taga** yetib, tahlil davrida **50,6 foizga oshgan**. Bu mamlakat tadqiqotchilarining xalqaro ilmiy maydondagi nashrlar faolligi va ko'rinuvchanligi kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Q1 jurnallarida chop etilgan ilmiy nashrlar soni umumiy nashrlar soniga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan.

Mazkur ko'rsatkich 2023 yildagi **975 tadan** 2025 yilda **2 621 taga** yetib, **168,8 foizga ko'paygan**. Bu yuqori kvartilli jurnallarda ilmiy natijalarni e'lon qilish faolligi kuchayganini anglatadi.

⁵ Hicks, D. et al. *Bibliometrics: The Leiden Manifesto for Research Metrics*. Nature, 520, 429–431 (2015). URL: <https://www.nature.com/articles/520429a> (23.07.2026).

⁶ San Francisco Declaration on Research Assessment. *Read the Declaration*. URL: <https://sfidora.org/read/> (23.07.2026).

Uchinchidan, iqtibos ta'siri bo'yicha Top 10% toifasiga kiruvchi ilmiy nashrlar sonida ham izchil o'sish qayd etilgan.

Ularning soni **452 tadan 1 156 taga** yetib, 3 yil davomida **155,8 foizga oshgan**. Mazkur tendensiya yuqori iqtibos ta'siriga ega ilmiy natijalar soni ko'payib borayotganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, Top 1% toifasidagi ilmiy nashrlar dinamikasi nisbatan o'zgaruvchan xususiyatga ega.

Ko'rsatkich 2024 yilda **91 taga** yetgan bo'lsa, 2025 yilda **78 taga** tushgan. Shunga qaramay, 2025 yil natijasi 2023 yilga nisbatan **73,3 foizga yuqori** bo'lib qolgan. Bu mazkur toifada ijobiy o'sish salohiyati mavjudligini, biroq barqaror tendensiya hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi.

Beshinchidan, 2025 yilda kvartillar bo'yicha tasniflangan **8 976 ta** ilmiy nashrning **46,6 foizi** Q1 va Q2 jurnallariga, **53,4 foizi** esa Q3 va Q4 jurnallariga to'g'ri kelgan.

Q4 jurnallaridagi nashrlar **34,1 foiz** bilan eng katta, Q1 jurnallaridagi nashrlar esa **29,2 foiz** bilan ikkinchi yuqori ulushni tashkil etgan. Bu yuqori kvartilli jurnallardagi nashrlar salmog'i sezilarli ekanini, ayni paytda ularning ulushini yanada oshirish imkoniyatlari saqlanib qolayotganini anglatadi.

Tahlilning umumlashtirilgan natijalari 2023–2025 yillarda ilmiy nashrlar sonining o'sishi yuqori kvartilli hamda yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlar ko'rsatkichlaridagi ijobiy dinamika bilan birga kechganini ko'rsatadi.

Ayni vaqtda Top 1% toifasidagi nashrlar sonining o'zgaruvchanligi hamda Q3 va Q4 jurnallaridagi nashrlar ulushining birmuncha yuqoriligi ilmiy natijalarning xalqaro ta'sirini barqaror oshirish, shuningdek, Q1 va Q2 jurnallarida chop etilgan ilmiy nashrlar salmog'ini ko'paytirishga qaratilgan tizimli choralarni davom ettirish zarurligini anglatadi.

IV. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI ILMIY NASHRLAR FAOLLIGINING QIYOSIY TAHLILI

4.1. Tahlilga kiritilgan OTTlarning umumiy tavsifi

Mazkur bobda 2025 yil natijalari asosida milliy reytingda ishtirok etuvchi **105 ta OTTning ilmiy nashrlar faolligi** qiyosiy tahlil qilinadi.

Tahlil OTTlarning faoliyat yo'nalishi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilangan toifalar kesimida amalga oshiriladi.

Tahlilga kiritilgan OTTlarning **62 tasi ijtimoiy-gumanitar, 28 tasi amaliy, 9 tasi tibbiyot, 3 tasi ijod (sport) toifasidagi OTTlar** hamda **3 tasi TOP-1000 universitetlar** toifasiga mansub.

Bunday guruhlash turli ta'lim va fan yo'nalishlariga ixtisoslashgan OTTlarni o'zaro qiyoslashda ularning sohaviy xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Tahlilga kiritilgan OTTlarda asosiy va ichki o'rindoshlik asosida faoliyat yurituvchi PO'Tning umumiy soni **51 357 nafarni** tashkil etadi.

Scopus tashkilot profillari kesimida qayd etilgan ilmiy nashrlar yig'indisi esa **18 424 taga** teng.

Bunda Scopus tashkilot profillari kesimidagi **18 424 ta** nashrni respublika bo'yicha 2025 yilda qayd etilgan **10 771 ta takrorlanmaydigan ilmiy nashr** bilan to'g'ridan-to'g'ri tenglashtirish mumkin emas. Chunki bir nechta OTT mualliflari hamkorligida tayyorlangan bitta ilmiy nashr har bir OTTning Scopus tashkilot profilida alohida qayd etiladi.

Shu sababli **18 424 ta** ko'rsatkich Scopus tashkilot profillari bo'yicha hisoblangan nashrlar yig'indisini, **10 771 ta** ko'rsatkich esa respublikaga affiliatsiyalangan takrorlanmaydigan ilmiy nashrlar sonini ifodalaydi.

Mazkur metodologik farqni hisobga olish respublika darajasidagi dinamika bilan OTTlar kesimidagi natijalarni to'g'ri talqin qilish uchun muhimdir.


Keyingi bo'limlarda ilmiy nashrlar soni, jurnallar kvartillari, yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlar hamda PO'T soniga nisbatan ilmiy natijadorlik toifalar bo'yicha qiyosiy baholanadi.

4.2. OTTlar toifalari bo'yicha ilmiy nashrlar soni

2025 yilda tahlilga kiritilgan OTTlarning Scopus tashkilot profillari bo'yicha qayd etilgan ilmiy nashrlar yig'indisi **18 424 tani** tashkil etgan. Nashrlarning toifalar kesimidagi taqsimoti OTTlar toifalari o'rtasida ilmiy nashrlar soni bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi.

Eng yuqori natija ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar hissasiga to'g'ri kelib, **10 423 ta ilmiy nashr** qayd etilgan. Keyingi o'rinlarda **amaliy** toifadagi OTTlar **3 720 ta**, **TOP-1000 universitetlar** **2 771 ta** hamda **tibbiyot** toifasidagi OTTlar **1 494 ta nashr** bilan joylashgan. Ijod (sport) toifasidagi OTTlarda esa **16 ta ilmiy nashr** qayd etilgan.

OTTlar toifalari bo'yicha ilmiy nashrlarning umumiy soni 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. OTTlar toifalari bo'yicha Scopus bazasidagi ilmiy nashrlarning umumiy soni, 2025 yil

***Manba:** Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.*


Ijtimoiy-gumanitar toifadagi OTTlar nashrlari umumiy sonining yuqoriligini talqin qilishda mazkur toifaga **62 ta OTT** kiritilganini hisobga olish zarur.

Binobarin, toifalarning ilmiy nashrlar faolligini faqat umumiy nashrlar soni asosida qiyoslash OTTlar sonidagi farqlarni to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli umumiy natijalar bilan bir qatorda bitta OTTga to'g'ri keladigan o'rtacha nashrlar soni ham tahlil qilindi.

Bitta OTTga to'g'ri keladigan o'rtacha nashrlar soni bo'yicha **TOP-1000 universitetlar** yetakchilik qilib, mazkur ko'rsatkich **923,7 tani** tashkil etgan.

Ijtimoiy-gumanitar toifada bu ko'rsatkich **168,1 ta**, tibbiyot toifasida **166 ta**, amaliy toifada **132,9 ta**, ijod (sport) toifasida esa **5,3 ta** ilmiy nashr to'g'ri kelgan.

OTTlar toifalari bo'yicha bitta OTTga to'g'ri keladigan o'rtacha nashrlar soni **6-rasmda** aks ettirilgan.



6-rasm. OTTlar toifalari bo'yicha bitta OTTga to'g'ri keladigan ilmiy nashrlarning o'rtacha soni, 2025 yil

***Manba:** Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.*

Tahlil natijalari nashrlarning umumiy soni bo'yicha yetakchilik bilan bitta OTTga to'g'ri keladigan o'rtacha natija o'rtasida muayyan farq mavjudligini ko'rsatadi.

Xususan, ijtimoiy-gumanitar toifa nashrlarning umumiy soni bo'yicha yetakchilik qilgan bo'lsa, o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha TOP-1000 universitetlar eng yuqori natijani qayd etgan.

Shuningdek, bitta OTTga to'g'ri keladigan o'rtacha nashrlar soni tashkilotlarning PO'T soni va miqyosidagi farqlarni to'liq bartaraf etmaydi.

Shu bois OTTlar toifalarining ilmiy natijadorligini yanada aniq qiyoslashda **nashrlar sonini PO'T soniga nisbatan baholash** zarur.

4.3. OTTlar toifalari bo'yicha jurnallar kvartillarining qiyosiy tahlili

OTTlar toifalari bo'yicha ilmiy nashrlarning jurnallar kvartillari kesimidagi taqsimoti ular chop etilgan jurnallarning tegishli fan sohasidagi nisbiy mavqeini qiyosiy baholash imkonini beradi.

Mazkur tahlilda har bir toifa bo'yicha foizlar kvartil toifasi aniqlangan ilmiy nashrlar jamiga nisbatan hisoblangan.

Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar Q1 jurnallaridagi nashrlar ulushi **33 foizni** tashkil etib, toifalar orasidagi eng yuqori natija qayd etilgan. Bunda Q2 jurnallarining ulushi **26 foiz**, Q3 – **16 foiz** va Q4 – **25 foizni** tashkil etgan. Bu ijtimoiy-gumanitar toifada kvartillar bo'yicha tasniflangan nashrlar tarkibida Q1 va Q2 jurnallaridagi nashrlar salmoqli o'rin tutishini ko'rsatadi.

TOP-1000 universitetlarda Q1 jurnallaridagi nashrlar ulushi **26 foiz**, Q2 – **20 foiz**, Q3 – **18 foiz** va Q4 – **36 foizga** teng bo'lgan.

Amaliy toifadagi OTTlarda Q1 jurnallaridagi nashrlar ulushi **22 foizni**, Q2 da **15 foizni**, Q3 da **21 foiz** va Q4 da **42 foizni** tashkil etadi.

Tibbiyot toifasidagi OTTlarda Q1 jurnallaridagi nashrlar ulushi **17 foizni**, Q2 jurnallaridagi nashrlar ulushi **23 foizni**, Q3 jurnallaridagi nashrlar ulushi **21 foizni**, Q4 jurnallaridagi nashrlar ulushi esa **38 foizni** tashkil etgan. Demak, mazkur toifada ham Q4 jurnallarida chop etilgan nashrlar yuqori ulushga ega bo'lgan.

Ijod (sport) toifasidagi OTTlarda Q2 jurnallaridagi nashrlar ulushi **47 foizni**, Q3 jurnallaridagi nashrlar ulushi esa **40 foizni** tashkil etgan. Q1 va Q4 jurnallaridagi nashrlar ulushi yaxlitlangan holda **7 foizdan** qayd etilgan.

OTTlar toifalari bo'yicha ilmiy nashrlarning jurnallar kvartillari kesimidagi tarkibi **7-rasmda** keltirilgan.



7-rasm. OTTlar toifalari bo'yicha ilmiy nashrlarning jurnallar kvartillari kesimidagi tarkibi, 2025 yil (%)

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Qiyosiy tahlil Q1 jurnallaridagi nashrlar ulushi ijtimoiy-gumanitar va TOP-1000 toifalarida yuqori ekanini ko'rsatadi. Amaliy va tibbiyot toifalaridagi OTTlarda esa Q4 jurnallaridagi nashrlar ulushi ustunlik qilgan.

Mazkur tafovutlarni talqin qilishda fan sohalarining nashr qilish amaliyoti, jurnallarning Scopus bazasida qamrab olinishi va toifalardagi ilmiy nashrlar soni o'rtasidagi farqlarni hisobga olish lozim.

Shu bilan birga, jurnal kvartillari iqtibos ta'sirining barcha jihatlarini to'liq ifodalamaydi. Shu sababli keyingi bo'limda OTTlar toifalarining **Top 10%** va **Top 1% ko'rsatkichlari** asosida xalqaro iqtibos ta'siri qiyosiy tahlil qilinadi.

4.4. Top 10% va Top 1% ko'rsatkichlari bo'yicha qiyosiy tahlil

Top 10% va Top 1% toifalariga kiruvchi ilmiy nashrlar soni OTTlar ilmiy natijalarining xalqaro iqtibos ta'sirini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.


Top 10% ko'rsatkichi jahon miqyosida yuqori iqtibos olingan nashrlarni qamrab olsa, Top 1% toifasi iqtibos ta'siri eng yuqori bo'lgan nisbatan tanlovchan nashrlar guruhini ifodalaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlarda **Top 10% toifasiga kiruvchi 1 542 ta**, Top 1% toifasiga kiruvchi esa **249 ta ilmiy nashr** qayd etilgan. Mazkur toifa har ikki ko'rsatkich bo'yicha ham nashrlarning mutlaq soni jihatidan yetakchilik qilgan.

Amaliy toifadagi OTTlarda Top 10% toifasiga kiruvchi **377 ta**, Top 1% toifasiga kiruvchi **40 ta ilmiy nashr** mavjud. TOP-1000 universitetlarda mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda **327 ta** va **34 tani** tashkil etgan.

Tibbiyot toifasidagi OTTlarda Top 10% toifasiga kiruvchi **131 ta**, Top 1% toifasiga kiruvchi **10 ta ilmiy nashr** qayd etilgan. Ijod (sport) toifasidagi OTTlarda esa 2025 yil ma'lumotlariga ko'ra Top 10% va Top 1% toifalariga kiruvchi ilmiy nashrlar qayd etilmagan.

OTTlar toifalari bo'yicha Top 10% va Top 1% ko'rsatkichlari **8-rasmda** aks ettirilgan.



8-rasm. OTTlar toifalari bo'yicha Top 10% va Top 1% toifalariga kiruvchi ilmiy nashrlar soni, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Ijtimoiy-gumanitar toifaning mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchiligini talqin qilishda mazkur guruhga kiruvchi OTTlar va ulardagi ilmiy nashrlar umumiy soni boshqa toifalarga nisbatan yuqori ekanini hisobga olish zarur.

Shu sababli Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlarning mutlaq soni OTTlar ilmiy natijadorligining yagona o'lchovi sifatida qaralmasligi lozim.

TOP-1000 toifasi atigi uchta universitetni qamrab olishiga qaramay, mazkur guruhda Top 10% va Top 1% toifalariga kiruvchi nashrlarning salmoqli soni qayd etilgan. Bu ushbu universitetlarda yuqori iqtibos ta'siriga ega ilmiy nashrlar muayyan darajada jamlanganini ko'rsatadi.

Ijod (sport) toifasida Top 10% va Top 1% toifalariga kiruvchi nashrlar qayd etilmagani mazkur OTTlarda ilmiy faoliyat mavjud emasligini anglatmaydi. Ushbu natijani toifadagi nashrlar umumiy sonining kamligi, fan sohalarining o'ziga xos nashr qilish va iqtibos olish xususiyatlari bilan birgalikda talqin qilish zarur.

Shunday qilib, Top 10% va Top 1% ko'rsatkichlari OTTlar toifalarining xalqaro iqtibos ta'siri bo'yicha sezilarli farqlanishini ko'rsatadi.

Biroq toifalarning miqyosi va PO'Tdagi tafovutlarni hisobga olish uchun keyingi bo'limda **PO'T soniga nisbatan ilmiy natijadorlik** tahlil qilinadi.

4.5. PO'T soniga nisbatan ilmiy natijadorlik

OTTlar toifalarining ilmiy nashrlar faolligini qiyoslashda nashrlarning mutlaq soni bilan bir qatorda PO'T soniga nisbatan hisoblangan ko'rsatkichdan ham foydalanish zarur. Chunki OTTlar va ular toifalari PO'T hamda faoliyat miqyosi bo'yicha bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Shu maqsadda har bir toifada qayd etilgan ilmiy nashrlar umumiy soni asosiy ish joyi va ichki o'rindoshlik asosida faoliyat yurituvchi PO'T soniga bo'linib, 100 ga ko'paytirildi. Mazkur ko'rsatkich **100 nafar professor-o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan ilmiy nashrlar sonini** ifodalaydi.


Eng yuqori natija TOP-1000 universitetlarda qayd etilgan. Mazkur toifada **100 nafar professor-o'qituvchiga 71,4 ta ilmiy nashr** to'g'ri kelgan. Bu TOP-1000 toifasida ilmiy nashrlar faolligining PO'T soniga nisbatan ham yuqori darajada shakllanganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlarda **100 nafar professor-o'qituvchiga 37,5 ta**, amaliy toifadagi OTTlarda esa **33,2 ta ilmiy nashr** to'g'ri kelgan. Mazkur ikki toifa o'rtasidagi farq nisbatan katta bo'lmasa-da, ijtimoiy-gumanitar toifasida ilmiy nashrlar intensivligi birmuncha yuqori bo'lgan.

Tibbiyot toifasidagi OTTlarda **100 nafar professor-o'qituvchiga 20,5 ta ilmiy nashr** to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkich tibbiyot toifasida bitta OTTga to'g'ri keladigan o'rtacha nashrlar soni yuqori bo'lsa-da, PO'T soniga nisbatan hisoblangan natija boshqa asosiy toifalarga qaraganda pastroq ekanini ko'rsatadi.

Ijod (sport) toifasidagi OTTlarda **100 nafar professor-o'qituvchiga 1,3 ta ilmiy nashr** to'g'ri kelgan.

OTTlar toifalari bo'yicha 100 nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan ilmiy nashrlar soni **9-rasmda** keltirilgan.



9-rasm. OTTLar toifalari bo'yicha 100 nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan ilmiy nashrlar soni, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Mazkur yondashuv metodologik maqsadi jihatidan 3.1-bo'limda keltirilgan **QS World University Rankings metodologiyasidagi Citations per Faculty** ko'rsatkichiga yaqin.

Biroq ushbu ikki ko'rsatkich aynan bir xil emas: QS metodologiyasida PO'T soniga nisbatan iqtiboslar baholansa, mazkur tahlilda PO'T soniga nisbatan ilmiy nashrlar soni hisoblanadi.⁷

Shu bilan birga, 100 nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan nashrlar soni ilmiy faoliyatning miqdoriy intensivligini ifodalaydi va ilmiy nashrlarning sifati hamda iqtibos ta'sirini to'liq aks ettirmaydi.

Milliy reytingning yakuniy indeksida esa nashrlar soni bilan bir qatorda **Q1-Q4, Top 10% va Top 1% ko'rsatkichlari** hamda PO'T birgalikda hisobga olinadi.

Tahlil natijalari OTTLar toifalari o'rtasida ilmiy faoliyatning miqyosi, intensivligi va xalqaro ta'siri bo'yicha turli ko'rinishdagi tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur tafovutlar keyingi bo'limda umumlashtirilgan holda tahlil qilinadi.

4.6. OTTLar toifalarining ilmiy faolligidagi asosiy farqlar

OTTLar toifalarining ilmiy nashrlar faolligini qiyosiy tahlil qilish natijalari ular o'rtasida nashrlar hajmi, ilmiy faoliyat intensivligi, jurnallar kvartillari

⁷ QS Quacquarelli Symonds. *QS World University Rankings: Methodology*.
URL: <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings/methodology> (23.07.2026).

tarkibi va xalqaro iqtibos ta'siri bo'yicha katta tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur tafovutlar har bir ko'rsatkichning hisoblash bazasi va talqin qilish xususiyatini alohida inobatga olishni talab qiladi.

Ilmiy nashrlarning **mutlaq soni bo'yicha** ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar **10 423 ta** nashr bilan yetakchilik qilgan. Biroq ushbu toifaga **62 ta OTT kiritilgani sababli** mazkur natijani faqat ilmiy samaradorlik bilan izohlash to'g'ri emas. Bu toifaning qamrovi va miqyosi boshqa toifalarga nisbatan katta ekanini ham aks ettiradi.

Bitta **OTTga to'g'ri keladigan o'rtacha nashrlar soni bo'yicha** TOP-1000 toifasidagi universitetlar **923,7 ta** nashr bilan keskin ustunlik qilgan. Ijtimoiy-gumanitar va tibbiyot toifalarida mazkur ko'rsatkich mos ravishda **168,1** va **166 tani** tashkil etib, bir-biriga yaqin natijalar qayd etilgan.

100 nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan nashrlar soni bo'yicha ham TOP-1000 toifasi **71,4 ta** nashr bilan eng yuqori natijani qayd etgan. Keyingi o'rinlarda ijtimoiy-gumanitar toifa **37,5 ta** va amaliy toifa **33,2 ta** nashr bilan joylashgan. Tibbiyot toifasida mazkur ko'rsatkich **20,5 tani** tashkil etgan. Bu bitta OTTga to'g'ri keladigan o'rtacha nashrlar soni bilan PO'T soniga nisbatan hisoblangan natija bir xil mazmunni ifodalamasligini ko'rsatadi.

Jurnallar kvartillari tarkibi bo'yicha Q1 jurnallaridagi nashrlarning eng yuqori ulushi ijtimoiy-gumanitar toifada **33 foiz**, TOP-1000 toifasida esa **26 foiz** miqdorida qayd etilgan. Amaliy va tibbiyot toifalaridagi OTTlarda Q4 jurnallaridagi nashrlar ulushining yuqoriligi ushbu toifalarda yuqori kvartilli jurnallardagi nashrlar salmog'ini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Top 10% va Top 1% toifalariga kiruvchi nashrlarning mutlaq soni bo'yicha ham ijtimoiy-gumanitar toifa yetakchilik qilgan. Shuningdek, atigi uchta universitetni qamrab olgan TOP-1000 toifasida **327 ta Top 10%** va **34 ta Top 1% nashr** qayd etilgani yuqori iqtibos ta'siriga ega ilmiy natijalar mazkur universitetlarda nisbatan jamlanganini ko'rsatadi.

Ijod (sport) toifasidagi OTTlarning nisbatan past miqdoriy ko'rsatkichlarini ushbu sohalaridagi faoliyat natijalari Scopus bazasida indekslanadigan an'anaviy nashrlardan farqli shakllarda namoyon bo'lishini hisobga olgan holda baholash lozim.

Qiyosiy tahlil natijalari OTTlar toifalarining ilmiy faolligini faqat bitta ko'rsatkich asosida baholash yetarli emasligini ko'rsatadi. **Nashrlar hajmi, jurnallar kvartillari, xalqaro iqtibos ta'siri va PO'T soniga nisbatan ilmiy natijadorlik** o'zaro bog'liq holda talqin qilish maqsadga muvofiq.

4.7. Asosiy xulosalar

Birinchidan, tahlilga kiritilgan **105 ta** OTTdagi ilmiy nashrlar faolligi toifalar o'rtasida bir xil taqsimlanmagan. Nashrlarning mutlaq soni, bitta OTTga to'g'ri keladigan o'rtacha natija va PO'T soniga nisbatan hisoblangan ko'rsatkichlar toifalar kesimida turlicha natijalarni namoyon etgan.

Ikkinchidan, ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar **ilmiy nashrlarning umumiy soni, Q1 jurnallaridagi nashrlar ulushi** hamda **Top 10%** va **Top 1%** toifalaridagi nashrlarning **mutlaq soni** bo'yicha yetakchilik qilgan.

Biroq mazkur natijalarni talqin qilishda ushbu toifaga kiruvchi **OTTlar soni** va **faoliyat miqyosi** boshqa toifalarga nisbatan katta ekanini hisobga olish zarur.

Uchinchidan, TOP-1000 universitetlar **bitta OTTga** va **100 nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan ilmiy nashrlar soni** bo'yicha eng yuqori natijalarni qayd etgan.

Shuningdek, bu toifada yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlarning muayyan darajada jamlangani ushbu OTTlarning ilmiy faoliyat intensivligi va xalqaro ilmiy maydondagi ishtirokini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, amaliy toifadagi OTTlar ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha yuqori natija qayd etgan bo'lsa-da, ularning kvartillar bo'yicha tarkibida Q4 jurnallaridagi nashrlar ulushi ustunlik qilgan.

Tibbiyot toifasidagi OTTlarda bitta tashkilotga to'g'ri keladigan o'rtacha nashrlar soni nisbatan yuqori bo'lgan, biroq PO'T soniga nisbatan hisoblangan natija ijtimoiy-gumanitar va amaliy toifalarga qaraganda pastroq shakllangan.

Beshinchidan, ijod (sport) toifasidagi OTTlarda Scopus bazasida qayd etilgan ilmiy nashrlar soni va xalqaro iqtibos ta'siriga oid ko'rsatkichlar nisbatan past bo'lgan.

Mazkur ko'rsatkichni ushbu sohalaridagi ilmiy, ijodiy va kasbiy faoliyat natijalari xalqaro ilmiy-metrik bazalarda to'liq aks etmasligini hisobga olgan holda talqin qilish lozim.

Oltinchidan, qiyosiy tahlil OTTlar ilmiy faoliyatini faqat nashrlarning mutlaq soni asosida baholash yetarli emasligini tasdiqlaydi.

Nashrlar sifati, jurnallar kvartillari, xalqaro iqtibos ta'siri va PO'T soniga nisbatan ilmiy natijadorlikni birgalikda hisobga oluvchi yondashuv OTTlar faoliyatini nisbatan xolis va kompleks baholash imkonini beradi.

IV bobda amalga oshirilgan qiyosiy tahlil OTTlar toifalari o'rtasidagi asosiy farqlarni aniqlash bilan birga, ilmiy nashrlar faolligi va xalqaro iqtibos ta'siri bo'yicha yetakchi universitetlarni alohida o'rganish uchun tahliliy asos yaratadi.

Shu munosabat bilan keyingi bobda **TOP-1000 toifasidagi universitetlar** hamda **milliy ilmiy yetakchilarning natijalari** batafsil tahlil qilinadi.

V. TOP-1000 UNIVERSITETLARI VA MILLIY ILMIY YETAKCHILAR

5.1. TOP-1000 toifasidagi universitetlarning umumiy tavsifi

TOP-1000 toifasi 3 ta OTTdan iborat. «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti hamda Toshkent davlat texnika universiteti.

Mazkur universitetlarda jami **3 882 nafar professor-o'qituvchi** faoliyat yuritgan. Ularning Scopus tashkilot profillarida qayd etilgan ilmiy nashrlar yig'indisi **2 771 tani** tashkil etgan.

TOP-1000 toifasi OTTlar soni jihatidan tahlildagi eng kichik guruhlardan biri bo'lishiga qaramay, unda ilmiy nashrlar faolligi nisbatan yuqori darajada jamlangan.

Mazkur holat toifadagi universitetlarning ilmiy natijalarini **nashrlar soni** bilan bir qatorda, **jurnallar kvartillari, yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlar** hamda **PO'T soniga nisbatan ilmiy natijadorlik** ko'rsatkichlari asosida kompleks tahlil qilishni talab etadi.

Keyingi bo'limlarda ushbu OTTlarning ilmiy nashrlar hajmi va sifat tarkibi, xalqaro iqtibos ta'siri, nisbiy ilmiy natijadorligi va toifa doirasidagi o'rni alohida tahlil qilinadi.

5.2. Ilmiy nashrlar soni va sifat tarkibi

TOP-1000 universitetlarning Scopus tashkilot profillarida **2 771 ta ilmiy nashr** qayd etilgan.

Eng yuqori ko'rsatkich «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti Milliy tadqiqot universiteti hissasiga to'g'ri kelib, uning Scopus tashkilot profilida **1 017 ta ilmiy nashr** qayd etilgan.

O'zbekiston Milliy universitetida mazkur ko'rsatkich **966 tani**, Toshkent davlat texnika universitetida esa **788 tani** tashkil etgan.

TOP-1000 toifasida qayd etilgan ilmiy nashrlarning **2 535 tasi** **jurnallar kvartillari bo'yicha tasniflangan**, qolgan **236 tasida** kvartil ko'rsatkichi mavjud emas.

Kvartillar bo'yicha tasniflangan nashrlarning **654 tasi Q1**, **512 tasi Q2**, **458 tasi Q3** va **911 tasi Q4** jurnallarida chop etilgan.

1-jadval. TOP–1000 universitetlarning ilmiy nashrlar faolligi va jurnallar kvartillari bo'yicha ko'rsatkichlari, 2025 yil

T/r	OTT nomi	PO'T	Ilmiy nashrlar soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Kvartil ko'rsatkichi mavjud emas
1	«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti	753	1 017	17	127	264	198	140	314	101
2	O'zbekiston Milliy universiteti	2 053	966	9	119	238	218	139	267	104
3	Toshkent davlat texnika universiteti	1 076	788	8	81	152	96	179	330	31
	Jami	3 882	2 771	34	327	654	512	458	911	236

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

5.3. Xalqaro iqtibos ta'siri

TOP–1000 universitetlarning xalqaro iqtibos ta'siri Top 10% va Top 1% toifalariga kiruvchi ilmiy nashrlar soni asosida baholandi. Mazkur ko'rsatkichlar ilmiy nashrlarning tegishli fan sohasi, hujjat turi va chop etilgan yili bo'yicha jahonda eng ko'p iqtibos olingan nashrlar qatoridagi o'rnini ifodalaydi.

2025 yilda ushbu toifadagi universitetlarda **327 ta Top 10%** va **34 ta Top 1%** toifasiga kiruvchi ilmiy nashr qayd etilgan. Bunda Top 1% toifasidagi nashrlar Top 10% guruhining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli mazkur ikki ko'rsatkich o'zaro qo'shilmaydi va iqtibos ta'sirining alohida darajalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar sifatida talqin qilinadi.

Universitetlar kesimida eng yuqori natija «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universitetida qayd etilgan. Ushbu universitetning **127 ta ilmiy nashri Top 10%**, shundan **17 tasi Top 1%** toifasiga kirgan.

O'zbekiston Milliy universitetida **119 ta Top 10%** va **9 ta Top 1%** toifasidagi ilmiy nashr mavjud. Toshkent davlat texnika universitetida esa mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda **81 ta** va **8 tani** tashkil etgan.

Tahlil natijalari «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti nafaqat

ilmiy nashrlarning umumiy soni, balki yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlar soni bo'yicha ham toifada yetakchilik qilganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Milliy universiteti Top 10% toifasidagi nashrlar soni bo'yicha yetakchiga yaqin natijani qayd etgan bo'lsa, Toshkent davlat texnika universitetida yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlarning mutlaq soni nisbatan past bo'lgan.

Mazkur natijalarni talqin qilishda universitetlarning PO'T va faoliyat miqyosidagi farqlarni hisobga olish zarur. Shu bois, yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlarning mutlaq soni universitet ilmiy natijadorligining yagona mezon sifatida qaralmaydi.

5.4. Ilmiy natijadorlikning nisbiy ko'rsatkichlari

Mazkur bo'limda ilmiy nashrlar sonining **100 nafar PO'T nisbati** va **vaznlashtirilgan indeks natijalari** o'rganildi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universitetida 100 nafar professor-o'qituvchiga **135,1 ta ilmiy nashr** to'g'ri kelgan.

Toshkent davlat texnika universitetida bu ko'rsatkich **73,2 tani**, O'zbekiston Milliy universitetida esa **47,1 tani** tashkil etgan.

2-jadval. TOP-1000 toifasidagi universitetlarning nisbiy ilmiy natijadorlik ko'rsatkichlari, 2025 yil

O'rin	OTT nomi	100 nafar PO'Tga to'g'ri keladigan nashrlar soni	Vaznlashtirilgan ilmiy nashrlar indeksi (K)
1	«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti	135,1	7,50
2	Toshkent davlat texnika universiteti	73,2	3,48
3	O'zbekiston Milliy universiteti	47,1	2,60

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Vaznlashtirilgan indeks bo'yicha ham eng yuqori natija «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universitetida qayd etilgan.

Ushbu universitetning indeks qiymati **7,500664**ni tashkil etgan.

Keyingi o'rinlarni Toshkent davlat texnika universiteti **3,479554** hamda O'zbekiston Milliy universiteti **2,597662** indeks qiymati bilan egallagan.

Mutlaq nashrlar soni bo'yicha O'zbekiston Milliy universiteti ikkinchi o'rinda bo'lsa-da, PO'T soniga nisbatan hisoblangan vaznlashtirilgan indeksda Toshkent davlat texnika universiteti yuqoriroq natija qayd etgan.

Bu farq O'zbekiston Milliy universitetida PO'T kattaroq ekani, shuningdek, indeksda Top 1%, Top 10% va Q1–Q4 toifalaridagi nashrlarga turli vazn koeffitsiyentlari qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Natijalar nashrlarning mutlaq soni, ularning sifat tarkibi va PO'T soniga nisbatan natijadorlik ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liq holda talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

5.5. Milliy ilmiy yetakchilar

TOP–1000 universitetlar natijalarini boshqa OTTlar ko'rsatkichlari bilan qiyoslash ilmiy nashrlar faolligi va iqtibos ta'siri bo'yicha **milliy yetakchilarni aniqlash** imkonini beradi.


Bunda yetakchilar ilmiy nashrlarning umumiy soni, Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlar soni bo'yicha alohida aniqlandi.

Shu sababli har bir ko'rsatkich bo'yicha yetakchi OTTlar tarkibi bir-biridan farq qilishi mumkin.

Ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha respublikada eng yuqori natija **Urganch davlat universitetida – 1 218 ta** qayd etilgan.

Keyingi o'rinlarda **«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti 1 017 ta, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 989 ta, O'zbekiston Milliy universiteti 966 ta** hamda **«Ma'mun» universiteti 908 ta** ilmiy nashr bilan joylashgan.

Toshkent davlat texnika universitetida 788 ta, Samarqand davlat universitetida esa 745 ta ilmiy nashr qayd etilgan.




10-rasm. TOP-1000 universitetlar va boshqa toifalardagi yetakchi OTTlarning ilmiy nashrlari umumiy soni, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Top 10% toifasidagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 227 ta nashr bilan** eng yuqori natijani qayd etgan.

Urganch davlat universitetida 206 ta, «Yangi O'zbekiston» universitetida 173 ta, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetida 167 ta va «Ma'mun» universitetida 143 ta Top 10% toifasidagi nashr mavjud.

TOP-1000 universitetlar orasida mazkur ko'rsatkich bo'yicha yetakchi bo'lgan **«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universitetida 127 ta** shunday nashr qayd etilgan.




11-rasm. TOP-1000 universitet va boshqa toifalardagi milliy yetakchilarning Top 10% ko'rsatkichi bo'yicha qiyosiy natijalari, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Top 1% toifasidagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha ham **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 54 ta nashr bilan** yetakchilik qilgan.

Urganch davlat universitetida 32 ta, «Ma'mun» universitetida 31 ta, Alfraganus universitetida 29 ta va Termiz iqtisodiyot va servis universitetida 26 ta Top 1% nashr mavjud. «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universitetida mazkur ko'rsatkich **17 tani** tashkil etgan.



12-rasm. TOP–1000 universitet va boshqa toifalardagi milliy yetakchilarning Top 1% ko'rsatkichi bo'yicha qiyosiy natijalari, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Qiyosiy natijalar ilmiy nashrlar faolligi va yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlar bo'yicha yetakchilik faqat TOP–1000 universitetlarda jamlanmaganini ko'rsatadi.

Xususan, **Urganch davlat universiteti** ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha, **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti** esa Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlar soni bo'yicha respublika miqyosida eng yuqori natijalarni qayd etgan.

Shuningdek, bu qiyoslash mutlaq ko'rsatkichlarga asoslanganini hisobga olish zarur. OTTlarning PO'T, faoliyat miqyosi va fan sohalaridagi farqlar inobatga olinganda ularning nisbiy ilmiy natijadorligi boshqacha shakllanishi mumkin.

Shu bois ushbu natijalar OTTlarning umumiy reyting o'rni emas, balki har bir ko'rsatkich bo'yicha ilmiy yetakchilik holatini ifodalaydi.

5.6. Asosiy xulosalar

Tahlil TOP–1000 universitetlar mamlakat oliy ta'lim tizimida ilmiy nashrlar faolligi va ilmiy natijadorlik bo'yicha muhim o'rin egallashini ko'rsatadi.

Mazkur universitetlarning Scopus tashkilot profillarida **2 771 ta ilmiy nashr** qayd etilgan bo'lib, ularning salmoqli qismi yuqori kvartilli va yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlardan iborat.

«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti ilmiy nashrlarning umumiy soni, Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlar hamda vaznlashtirilgan indeks bo'yicha yetakchilik qilgan.

Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar bo'yicha universitetlar o'rni bir xil shakllanmagan.

Xususan, **O'zbekiston Milliy universiteti** ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha ikkinchi natijani qayd etgan bo'lsa, vaznlashtirilgan indeks bo'yicha **Toshkent davlat texnika universiteti** ikkinchi o'rinni egallagan.

Bu holat OTTlarning ilmiy faolligini baholashda nashrlar soni bilan bir qatorda, ularning kvartil va iqtibos tarkibi hamda PO'T soniga nisbatan natijadorligini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Qiyosiy tahlil ilmiy yetakchilik faqat TOP-1000 universitetlar bilan cheklanmasligini ham ko'rsatdi.

Urganch davlat universiteti ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha, **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti** esa Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlar soni bo'yicha respublikada eng yuqori natijalarni qayd etgan.

Shuningdek, **«Yangi O'zbekiston» universiteti, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, «Ma'mun» universiteti, Alfraganus universiteti** va boshqa bir qator OTTlarda ham alohida ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori natijalar kuzatilgan.

Olingan natijalar respublikada xalqaro ilmiy maydondagi mavqeini mustahkamlash imkoniyatiga ega OTTlar doirasi TOP-1000 universitetlardan kengroq ekanini ko'rsatadi.

Biroq bunday salohiyatni baholashda mutlaq nashrlar soni bilan cheklanmasdan, ilmiy natijalarning sifati, iqtibos ta'siri, fan sohalari xususiyatlari va PO'T soniga nisbatan samaradorlik ko'rsatkichlarini kompleks talqin qilish zarur.

VI. AMALIY TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKIO TLARI

6.1. Ilmiy nashrlar faolligining umumiy tavsifi

Scopus tashkilot profiliga ega bo'lgan va milliy reytingda ishtirok etgan **28 ta amaliy toifadagi OTT** mazkur toifa doirasida tahlil qilindi.

Ushbu OTTlarda faoliyat yuritgan PO'T **11 188 nafarni** tashkil etgan.

Amaliy toifadagi OTTlarning Scopus tashkilot profillarida jami **3 720 ta** ilmiy nashr qayd etilgan. Bunga ko'ra, bitta OTTga o'rtacha **132,9 ta** ilmiy nashr, 100 nafar professor-o'qituvchiga esa **33,2 ta** ilmiy nashr to'g'ri kelgan.

Toifalar kesimidagi qiyosiy tahlil amaliy toifadagi OTTlar ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlardan keyingi o'rinni egallaganini ko'rsatadi.

Biroq mazkur toifadagi OTTlar soni, ularning PO'T va faoliyat miqyosi o'zaro farq qilishi sababli ilmiy natijadorlikni faqat nashrlarning umumiy soni asosida baholash yetarli emas.

Shu bois amaliy toifadagi OTTlarni baholashda ilmiy nashrlar hajmi bilan bir qatorda, ularning jurnallar kvartillari bo'yicha tarkibi, Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlar soni hamda PO'T soniga nisbatan hisoblangan vaznlashtirilgan indeks natijalarini ham inobatga olish zarur.


Keyingi bo'limda amaliy toifadagi OTTlar orasida ilmiy nashrlar faolligi bo'yicha yetakchilar alohida tahlil qilinadi.

6.2. Ilmiy nashrlar faolligi bo'yicha yetakchilar

Amaliy toifadagi OTTlar kesimida ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha eng yuqori natija **Toshkent davlat transport universitetida** qayd etilgan. Ushbu universitet Scopus tashkilot profilida **558 ta** ilmiy nashr mavjud bo'lgan.

Keyingi o'rinlarni **«Yangi O'zbekiston» universiteti 507 ta** hamda **Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 442 ta** ilmiy nashr bilan egallagan.

Namangan davlat texnika universitetida 250 ta, Farg'ona davlat texnika universitetida esa 205 ta ilmiy nashr qayd etilgan.



13-rasm. Amaliy toifadagi OTTlar orasida ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Mazkur beshta OTTning Scopus tashkilot profillarida **1 962 ta** ilmiy nashr qayd etilgan bo'lib, bu ushbu toifadagi OTTlar nashrlarining **52,7 foizini** tashkil etadi.

Demak, mazkur toifadagi ilmiy nashrlar hajmining yarmidan ko'prog'i **5 ta yetakchi OTT hissasiga to'g'ri kelgan.**

Ilmiy nashrlarning umumiy soni OTT ilmiy natijadorligining faqat miqdoriy jihatini ifodalaydi. Nashrlar soni bo'yicha yuqori natija reytingdagi yetakchilikni avtomatik ravishda anglatmaydi. Yakuniy baholashda jurnallar kvartillari, yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlar va PO'T soniga nisbatan natijadorlik ham hisobga olinadi.

6.3. Sifat va iqtibos ko'rsatkichlari


Amaliy toifadagi OTTlarda qayd etilgan **3 720 ta** ilmiy nashrning **3 301 tasi jurnallar kvartillari bo'yicha tasniflangan, 419 tasida** esa kvartil ko'rsatkichi mavjud emas. Kvartillar bo'yicha tasniflangan nashrlarning **728 tasi Q1, 492 tasi Q2, 699 tasi Q3 va 1 382 tasi Q4** jurnallarida chop etilgan.

Nashrlar tarkibida Q1 jurnallaridagi nashrlar **22,1 foizni**, Q2 – **14,9 foiz**, Q3 – **21,2 foiz** va Q4 – **41,9 foizni** tashkil etgan.

Q1 jurnallaridagi nashrlar soni bo'yicha **«Yangi O'zbekiston» universiteti 328 ta** nashr bilan yaqqol yetakchilik qilgan. Bu toifadagi barcha Q1 nashrlarining **45,1 foizini** tashkil etadi.

Keyingi o'rinlarda **Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 53 ta**, **Toshkent davlat agrar universiteti** va **Andijon davlat universiteti 42 tadan** hamda **Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti 37 ta** Q1 nashri bilan joylashgan.

«Yangi O'zbekiston» universitetining natijasi eng yaqin ko'rsatkichdan olti baravardan ortiq yuqori bo'lgan.




14-rasm. Amaliy toifadagi OTTLar orasida Q1 jurnallaridagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Amaliy toifadagi OTTLarda **377 ta Top 10%** toifasidagi ilmiy nashr qayd etilgan. Ularning **173 tasi** yoki **45,9 foizi «Yangi O'zbekiston» universiteti** hissasiga to'g'ri kelgan.

Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 32 ta, **Andijon davlat universitetida 27 ta**, **Toshkent davlat transport universitetida 24 ta** va **Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida 16 ta** Top 10% toifasidagi nashr mavjud.


Yetakchi OTT natijasi eng yaqin ko'rsatkichdan **5 baravar ortiq**.



15-rasm. Amaliy toifadagi OTTLar orasida Top 10% toifasidagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Top 1% toifasidagi nashrlarning umumiy soni 40 tani tashkil etgan. Shundan **21 tasi** yoki **52,5 foizi** «Yangi O'zbekiston» universitetida qayd etilgan. **Toshkent davlat transport universitetida 5 ta, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Farg'ona davlat texnika universitetida 4 tadan** hamda **Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida 2 ta** Top 1% toifasidagi nashr mavjud bo'lgan.



16-rasm. Amaliy toifadagi OTTLar orasida Top 1% toifasidagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar «Yangi O'zbekiston» universiteti ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha ikkinchi o'rinda bo'lishiga qaramay, Q1, Top 10% va Top 1% ko'rsatkichlarining har uchasi bo'yicha toifada yetakchilik qilganini ko'rsatadi.

Bu mutlaq nashrlar hajmi bilan ularning sifat va iqtibos tarkibi bir xil natijani ifodalamasligini tasdiqlaydi.

Jurnal kvartillari alohida maqolaning mutlaq ilmiy sifatini to'g'ridan-to'g'ri belgilamaydi. Shu sababli Q1 ko'rsatkichini Top 10% va Top 1% natijalari hamda PO'T soniga nisbatan hisoblangan vaznlashtirilgan indeks bilan birgalikda talqin qilish zarur.

6.4. Reyting natijalari

2025 yil natijalari asosida amaliy toifadagi OTTlarning ilmiy nashrlar faolligi indikatori bo'yicha reyting natijalari hisoblandi.

Baholashda Top 1%, Top 10% va Q1–Q4 toifalaridagi nashrlarga belgilangan vazn koeffitsiyentlari qo'llanilib, olingan natija PO'T soniga nisbatan hisoblandi. Amaliy toifadagi OTTlar uchun maksimal reyting natijasi **5 ball** etib belgilangan.

Reyting natijalariga ko'ra, **«Yangi O'zbekiston» universiteti 55,92 indeks va 5 ball bilan** mazkur toifada 1-o'rinni egallagan. **Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti 9,18 indeks va 0,821 ball bilan** 2-o'rinda joylashgan. Yetakchi universitetning indeks qiymati 2-o'rindagi OTT ko'rsatkichidan olti baravardan ortiq yuqori bo'lgan.

Hisob-kitob natijalari **3-jadvalda** keltirilgan.

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T soni	Nashrlarning umumiy soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
1	Davlat	«Yangi O'zbekiston» universiteti	95	507	21	173	328	104	18	10	55.92	5,000
2	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	76	115	2	16	37	21	18	20	9.18	0,821
3	Davlat	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	545	442	4	32	53	53	34	166	2.59	0,232
4	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Inxa universiteti	61	16	0	4	11	2	2	1	2.44	0,218
5	Davlat	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	379	149	1	16	25	20	44	55	1.91	0,171
6	Davlat	Andijon davlat universiteti	576	166	1	27	42	40	44	32	1.85	0,165
7	Davlat	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	374	178	0	8	13	31	54	76	1.77	0,158
8	Davlat	Toshkent davlat transport universiteti	1 046	558	5	24	22	48	194	232	1.69	0,151
9	Davlat	Geologiya fanlari universiteti	122	44	0	2	10	3	8	23	1.42	0,127
10	Davlat	Toshkent davlat agrar universiteti	642	169	0	12	42	41	26	45	1.33	0,119
11	Davlat	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	277	62	0	7	13	12	12	24	1.15	0,103
12	Davlat	Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	364	93	1	3	9	21	17	37	0.95	0,085
13	Davlat	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand filiali	152	33	0	4	6	1	4	20	0.86	0,076
14	Davlat	Namangan davlat texnika universiteti	828	250	0	6	19	23	40	159	0.81	0,072
15	Davlat	Farg'ona davlat texnika universiteti	874	205	4	13	25	18	38	61	0.80	0,072

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T soni	Nashrlarning umumiy soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
16	Xorijiy filial	Toshkent qo'shma belarus-o'zbek tarmoqlararo amaliy texnika malakasi instituti	91	10	1	2	3	1	1	4	0.77	0,069
17	Davlat	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti	393	97	0	5	6	5	19	66	0.69	0,061
18	Davlat	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	207	29	0	0	9	7	5	8	0.69	0,061
19	Davlat	Qarshi davlat texnika universiteti	856	163	0	5	19	13	38	77	0.59	0,053
20	Davlat	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali	86	12	0	1	1	2	4	5	0.59	0,053
21	Davlat	Jizzax politexnika instituti	472	88	0	7	9	1	18	51	0.57	0,051
22	Davlat	Andijon davlat texnika instituti	488	84	0	3	10	7	17	45	0.54	0,049
23	Davlat	Olmaliq davlat texnika instituti	240	39	0	1	2	2	13	22	0.47	0,042
24	Davlat	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	342	29	0	1	7	6	4	10	0.37	0,033
25	Davlat	Buxoro davlat texnika universiteti	889	135	0	2	4	4	20	102	0.29	0,026
26	Davlat	Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti	333	23	0	2	2	2	5	14	0.25	0,022
27	Davlat	Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti	324	20	0	1	1	4	1	14	0.19	0,017
28	Xorijiy filial	I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent filiali	56	4	0	0	0	0	1	3	0.13	0,011
29	Xorijiy filial	«MIFI» Milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filiali	Profil mavjud emas									0

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T soni	Nashrlarning umumiy soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
30	Xorijiy filial	«MISiS» Milliy tadqiqot texnologiya universitetining Olmaliq shahridagi filiali		Profil mavjud emas								0
31	Xorijiy filial	Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali		Profil mavjud emas								0
32	Xorijiy	D.I. Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent filiali		Profil mavjud emas								0
33	Nodavlat	IT-Park University		Profil mavjud emas								0
34	Davlat	Nukus davlat texnika universiteti		Profil mavjud emas								0
35	Davlat	Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti		Profil mavjud emas								0
36	Davlat	Toshkent kimyo-texnologiya institutining Yangiyer filiali		Profil mavjud emas								0
37	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Adju universiteti		Profil mavjud emas								0
38	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Puchon universiteti		Profil mavjud emas								0
39	Nodavlat	Japan Digital University		Profil mavjud emas								0
40	Davlat	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali		Profil mavjud emas								0

3-jadval. Amaliy toifadagi OTTlarning ilmiy nashrlar faolligi indikatori bo'yicha reyting natijalari, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: indeks nashrlarning vaznlashtirilgan ko'rsatkichlari va PO'T soni asosida hisoblangan (maksimal ball – 5). Scopus tashkilot profili mavjud bo'lmagan OTTlar bo'yicha indikator hisoblanmay, 0 ball qo'yilgan.

Ilmiy nashrlarning **umumiy soni bo'yicha Toshkent davlat transport universiteti 558 ta** nashr bilan yetakchilik qilgan bo'lsa-da, vaznlashtirilgan reyting natijasida 8-o'rinni egallagan.

«**Yangi O'zbekiston**» universitetining reytingdagi yetakchiligi Q1, Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlar soni hamda PO'T soniga nisbatan ilmiy natijadorlikning yuqoriligi bilan izohlanadi.

Indeks qiymati bilan reyting bali o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri mutanosiblik mavjud emas. Reyting balini hisoblashda logarifmik me'yorlashtirish qo'llanilgani sababli indeks qiymatlaridagi farqlar 0–5 ballik shkalaga moslashtirilgan holda ifodalangan.

Scopus tashkilot profili mavjud bo'lmagan amaliy toifadagi OTTlarga reyting o'rni berilmaydi.

6.5. Asosiy xulosalar

Tahlil natijalari amaliy toifadagi **28 ta** OTTning **Scopus** tashkilot profillarida **3 720 ta** ilmiy nashr qayd etilganini ko'rsatadi. Toifada bitta OTTga o'rtacha **132,9 ta**, 100 nafar professor-o'qituvchiga esa **33,2 ta** ilmiy nashr to'g'ri kelgan.

Ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha **Toshkent davlat transport universiteti 558 ta** nashr bilan yetakchilik qilgan. Biroq 5 ta yetakchi OTT hissasiga toifadagi jami nashrlarning **52,7 foizi** to'g'ri kelishi ilmiy nashrlar faolligi muayyan OTTlarda nisbatan yuqori darajada jamlanganini ko'rsatadi.

Kvartillar bo'yicha tasniflangan nashrlar tarkibida Q4 jurnallaridagi nashrlar **41,9 foiz** bilan eng katta ulushni tashkil etgan, Q1 jurnallaridagi nashrlar ulushi esa **22,1 foizga** teng bo'lgan. Bu amaliy toifadagi OTTlarda yuqori kvartilli jurnallardagi nashrlar salmog'ini oshirish lozimligini ko'rsatadi.

«**Yangi O'zbekiston**» universiteti Q1, Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlar soni bo'yicha yaqqol ustunlikni namoyon etgan. Mazkur universitet toifadagi Q1 nashrlarining **45,1 foizi**, Top 10% nashrlarining **45,9 foizi** va Top 1% nashrlarining **52,5 foizini** ta'minlagan. Bu yuqori kvartilli va yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlar mazkur OTTda sezilarli darajada jamlanganini ko'rsatadi.

Reyting natijalari nashrlarning mutlaq soni bilan nisbiy ilmiy natijadorlik bir xil tartibni shakllantirmasligini tasdiqladi.

«Yangi O'zbekiston» universiteti nashrlarning umumiy soni bo'yicha ikkinchi o'rinda bo'lsa-da, **55,92 indeks** va **5 ball** bilan ilmiy nashrlar faolligi indikatori bo'yicha toifa reytingida birinchi o'rinni egallagan.

Bu natija reytingda nashrlar hajmi bilan bir qatorda, ularning kvartil va iqtibos tarkibi hamda PO'T soniga nisbatan natijadorlik hisobga olinishini ko'rsatadi.

VII. TIBBIYOT TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI

7.1. Ilmiy nashrlar faolligining umumiy tavsifi

Scopus tashkilot profiliga ega bo'lgan va milliy reytingda ishtirok etgan **9 ta tibbiyot toifasidagi OTT** mazkur toifa doirasida tahlil qilindi.

Ushbu OTTlarda faoliyat yuritgan PO'T **7 302 nafar**.

Tibbiyot toifasidagi OTTlarning Scopus tashkilot profillarida **1 494 ta** ilmiy nashr qayd etilgan. Bitta OTTga o'rtacha **166 ta** ilmiy nashr, 100 nafar professor-o'qituvchiga esa **20,5 ta** ilmiy nashr to'g'ri kelgan.

Tibbiyot toifasidagi OTTlarda ilmiy nashrlarning umumiy soni ijtimoiy-gumanitar va amaliy toifalaridagi OTTlarga nisbatan kamroq bo'lgan.

Biroq bitta OTTga to'g'ri keladigan **166 ta** nashr mazkur ko'rsatkich bo'yicha tahlildagi asosiy OTT toifalari orasidagi eng yuqori natijalardan biri hisoblanadi.

Bu tibbiyot toifasida OTTlar soni nisbatan kam bo'lsa-da, ayrim tashkilotlarda ilmiy nashrlar faolligi yuqori darajada shakllanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, toifadagi OTTlarning PO'T, faoliyat miqyosi va ilmiy ixtisoslashuvi o'zaro farq qiladi.


Shu sababli ularning ilmiy natijalarini nashrlarning mutlaq soni bilan bir qatorda, jurnallar kvartillari, Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlar hamda PO'T soniga nisbatan hisoblangan vaznlashtirilgan indeks asosida baholash zarur.

7.2. Ilmiy nashrlar faolligi bo'yicha yetakchilar

Tibbiyot toifasidagi OTTlar orasida ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha **Toshkent davlat tibbiyot universiteti 413 ta** nashr bilan yetakchilik qilgan.

Keyingi o'rinlarni **Samarqand davlat tibbiyot universiteti 321 ta** va **Buxoro davlat tibbiyot instituti 288 ta** ilmiy nashr bilan egallagan.

Central Asian University Scopus tashkilot profilida **207 ta**, **Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 85 ta**, **Andijon davlat tibbiyot institutida 74 ta** va **Toshkent farmatsevtika institutida 60 ta** ilmiy nashr qayd etilgan.



17-rasm. Tibbiyot toifasidagi OTTlar orasida ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Nashrlarning umumiy soni bo'yicha dastlabki 3 ta OTT – **Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Buxoro davlat tibbiyot instituti** hissasiga jami **1 022 ta** ilmiy nashr to'g'ri kelgan. Bu tibbiyot toifasidagi OTTlar ilmiy nashrning **68,4 foizini** tashkil etadi.

Demak, toifadagi ilmiy nashrlar hajmining uchdan ikki qismidan ko'prog'i mazkur **3 ta OTTda jamlangan**.

7.3. Sifat va iqtibos ko'rsatkichlari


Tibbiyot toifasidagi OTTlarda qayd etilgan **1 494 ta** ilmiy nashrning **1 325 tasi** jurnallar kvartillari bo'yicha tasniflangan, **169 tasida** esa kvartil ko'rsatkichi mavjud emas.

Kvartillar bo'yicha tasniflangan nashrlarning **223 tasi Q1, 311 tasi Q2, 283 tasi Q3 va 508 tasi Q4** jurnallarida chop etilgan.

Kvartillar bo'yicha tasniflangan nashrlar tarkibida Q1 jurnallaridagi nashrlar **16,8 foizni**, Q2 – **23,5 foiz**, Q3 – **21,4 foiz** va Q4 – **38,3 foizni** tashkil etgan. Q1 jurnallaridagi **223 ta** nashr toifadagi barcha ilmiy nashrlarning **14,9 foiziga** teng bo'lgan.

Q1 jurnallaridagi nashrlar soni bo'yicha **Central Asian University 73 ta** nashr bilan yetakchilik qilgan. Bu tibbiyot toifasidagi barcha Q1 nashrlarining **32,7 foizini** tashkil etadi.


Keyingi o'rinlarni **Samarqand davlat tibbiyot universiteti 68 ta**, **Toshkent davlat tibbiyot universiteti 41 ta**, **Buxoro davlat tibbiyot instituti 16 ta** va **Toshkent farmatsevtika instituti 8 ta** Q1 nashri bilan egallagan.



18-rasm. Tibbiyot toifasidagi OTTlar orasida Q1 jurnallaridagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.


Tibbiyot toifasidagi OTTlarda **131 ta Top 10%** toifasidagi ilmiy nashr qayd etilgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha **Samarqand davlat tibbiyot universiteti 37 ta** nashr bilan yetakchilik qilgan. **Central Asian Universityda 29 ta**, **Buxoro davlat tibbiyot institutida 20 ta**, **Toshkent davlat tibbiyot universitetida 18 ta**, **Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 10 ta** va **Toshkent davlat tibbiyot universitetining Termiz filialida 9 ta** Top 10% nashri mavjud bo'lgan.



19-rasm. Tibbiyot toifasidagi OTTlar orasida Top 10% toifasidagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Top 1% toifasidagi nashrlar **10 tani** tashkil etgan. Shundan **3 tasi Central Asian University** hissasiga to'g'ri keladi. **Andijon davlat tibbiyot instituti** va **Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 2 tadan**, **Samarqand davlat tibbiyot universiteti**, **Toshkent farmatsevtika instituti** va **Toshkent davlat tibbiyot universitetida esa 1 tadan** Top 1% toifasidagi nashr qayd etilgan.



20-rasm. Tibbiyot toifasidagi OTTlar orasida Top 1% toifasidagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar tibbiyot toifasida turli ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchilik bir OTTda to'liq jamlanmaganini ko'rsatadi.

Central Asian University Q1 va Top 1% toifalaridagi nashrlar soni bo'yicha, **Samarqand davlat tibbiyot universiteti** esa **Top 10%** ko'rsatkichi bo'yicha yetakchilik qilgan. **Toshkent davlat tibbiyot universiteti nashrlarning umumiy soni** bo'yicha 1-o'rinda bo'lsa-da, yuqori kvartilli va yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlar bo'yicha boshqa OTTlar yuqoriroq natijalarni qayd etgan.

Tibbiyot toifasidagi OTTlarda ilmiy nashrlarning umumiy hajmi ijtimoiy-gumanitar va amaliy toifalardagi OTTlarga nisbatan kamroq bo'lsa-da, Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlarning mavjudligi mazkur toifada xalqaro iqtibos ta'siriga ega ilmiy natijalar shakllanganini ko'rsatadi.

7.4. Tibbiyot toifasidagi OTTlarning reyting natijalari

Tibbiyot toifasidagi OTTlarning reyting natijalari ilmiy nashrlarning vaznlashtirilgan ko'rsatkichlari va PO'T hisobga olingan holda shakllantirilgan indeks asosida baholandi.

Shu sababli reytingda OTTning nashrlar umumiy soni bilan bir qatorda, Q1–Q4 jurnallaridagi, Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlari hamda ilmiy faoliyatning nisbiy natijadorligi inobatga olingan.

Tahlilga kiritilgan tibbiyot toifasidagi OTTlarning reyting natijalari **4-jadvalda** keltirilgan.

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T soni	Umumiy nashrlar soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
1	Nodavlat	Central Asian University	89	207	3	29	73	58	22	9	15.22	5,000
2	Davlat	Samarqand davlat tibbiyot universiteti	1 265	321	1	37	68	65	55	108	1.30	0,427
3	Davlat	Buxoro davlat tibbiyot instituti	911	288	0	20	16	57	70	133	1.19	0,390
4	Davlat	Toshkent farmatsevtika instituti	251	60	1	5	8	8	20	22	1.10	0,361
5	Davlat	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	658	85	2	10	7	22	18	28	0.63	0,206
6	Davlat	Toshkent davlat tibbiyot universiteti	2 529	413	1	18	41	86	66	154	0.57	0,189
7	Davlat	Toshkent davlat tibbiyot universitetining Termiz filiali	363	34	0	9	3	7	8	15	0.56	0,184
8	Nodavlat	Farmatsevtika ta'limi va tadqiqotlar instituti	109	12	0	0	1	1	3	2	0.26	0,084
9	Davlat	Andijon davlat tibbiyot instituti	1 127	74	2	3	6	7	21	37	0.24	0,077
10	Davlat	Urganch davlat tibbiyot instituti	Profil mavjud emas									0

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T soni	Umumiy nashrlar soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
11	Nodavlat	Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti	Profil mavjud emas									0
12	Nodavlat	Central Asian Medical University	Profil mavjud emas									0
13	Davlat	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti	Profil mavjud emas									0
14	Xorijiy filial	Qozon federal universitetining Jizzax shahridagi filiali	Profil mavjud emas									0

4-jadval. Tibbiyot toifasidagi OTTlarning Scopus ma'lumotlari asosida ilmiy nashrlar faolligi reytingi, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: indeks nashrlarning vaznlashtirilgan ko'rsatkichlari va PO'T soni asosida hisoblangan (maksimal ball – 5). Scopus tashkilot profili mavjud bo'lmagan OTTlar bo'yicha indikator hisoblanmay, 0 ball qo'yilgan.

Reyting natijalariga ko'ra, **Central Asian University 15,22 indeks** va **5 ball** bilan 1-o'rinni egallagan. Universitetning PO'T **89 nafar** bo'lishiga qaramay, **207 ta** ilmiy nashr, jumladan, Q1 jurnallarida **73 ta**, Top 10% toifasida **29 ta** va Top 1% toifasida **3 ta** nashr qayd etilgan.

Mazkur natija universitetning vaznlashtirilgan ilmiy ko'rsatkichlari PO'T soniga nisbatan yuqori ekanini ko'rsatadi.

2-o'rinni **Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1,3 indeks** va **0,427 ball** bilan egallagan. Keyingi o'rinlarda **Buxoro davlat tibbiyot instituti 1,19 indeks** va **0,390 ball**, **Toshkent farmatsevtika instituti** esa **1,1 indeks** va **0,361 ball** bilan joylashgan.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti 0,63 indeks bilan 5-, **Toshkent davlat tibbiyot universiteti 0,57 indeks** bilan 6-, **uning Termiz filiali** esa **0,56 indeks** bilan 7-o'rinni egallagan. **Farmatsevtika ta'limi va tadqiqotlar instituti** va **Andijon davlat tibbiyot instituti** mos ravishda **0,26** va **0,24 indeks** bilan keyingi o'rinlarda qayd etilgan.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 413 ta ilmiy nashr bilan toifadagi eng yuqori mutlaq natijani qayd etgan bo'lsa-da, reytingda 6-o'rinni egallagan.

1- va 2-o'rindagi OTTlar indeksi o'rtasida **qariyb 11,7 baravar farq** mavjud. Mazkur tafovut tibbiyot toifasidagi OTTlar o'rtasida vaznlashtirilgan ilmiy-metrik natijadorlik bir xil shakllanmaganini ko'rsatadi.

7.5. Asosiy xulosalar

Birinchidan, Scopus tashkilot profili mavjud bo'lgan va milliy reytingda ishtirok etgan **9 ta tibbiyot toifasidagi OTTda 1 494 ta** ilmiy nashr qayd etilgan.

Bitta OTTga o'rtacha **166 ta**, 100 nafar professor-o'qituvchiga esa **20,5 ta** ilmiy nashr to'g'ri kelgan. Bu tibbiyot toifasidagi OTTlarda xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslanadigan ilmiy nashrlar faolligi muayyan darajada shakllanganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ilmiy nashrlarning mutlaq soni bo'yicha **Toshkent davlat tibbiyot universiteti 413 ta** nashr bilan yetakchilik qilgan.

Keyingi yuqori natijalar **Samarqand davlat tibbiyot universitetida 321 ta** va **Buxoro davlat tibbiyot institutida 288 ta** nashr bilan qayd etilgan. Mazkur 3 ta OTT hissasiga tibbiyot toifasidagi ilmiy nashrlarning asosiy qismi

to'g'ri kelishi nashrlar faolligi yirik tibbiyot ilmiy-ta'lim markazlarida nisbatan yuqori darajada jamlanganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, tibbiyot toifasidagi OTTlarda Q1 jurnallarida **223 ta**, Top 10% toifasida **131 ta** va Top 1% toifasida **10 ta** ilmiy nashr qayd etilgan.

Ayniqsa, **Central Asian University, Samarqand davlat tibbiyot universiteti** va **Toshkent davlat tibbiyot universitetining** yuqori kvartilli hamda yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlar bo'yicha natijalari mazkur OTTlarning xalqaro ilmiy maydondagi faolligini ifodalaydi.

To'rtinchidan, ilmiy nashrlar umumiy soni bo'yicha yetakchilik bilan nisbiy ilmiy natijadorlik bo'yicha yetakchilik bir OTT hissasiga to'g'ri kelmagan.

Xususan, **Toshkent davlat tibbiyot universiteti** nashrlar umumiy soni bo'yicha **1-o'rinda** bo'lsa, **Central Asian University 15,22 indeks** va **5 ball bilan reytingda yetakchilik qilgan**.

Beshinchidan, 1- va 2-o'rindagi OTTlar indeksleri o'rtasida qariyb **11,7 baravar farq** mavjudligi tibbiyot toifasida vaznlashtirilgan ilmiy-metrik natijadorlik notekis shakllanganini ko'rsatadi. Shuningdek, **5 ta OTTda Scopus tashkilot profili mavjud emasligi** ularning ilmiy nashrlar faolligini pastligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari tibbiyot toifasidagi OTTlarda ilmiy nashrlar hajmi, yuqori kvartilli jurnallarda ishtirok etish va xalqaro iqtibos ta'siri bo'yicha muayyan salohiyat shakllanganini ko'rsatadi.

Biroq toifa doirasidagi sezilarli farqlarni qisqartirish uchun Scopus tashkilot profillarini tartibga solish, yuqori kvartilli jurnallardagi nashrlar salmog'ini oshirish va ilmiy faoliyat samaradorligi past OTTlarni maqsadli qo'llab-quvvatlash zarur.

VIII. IJTIMOIIY-GUMANITAR TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI

8.1. Toifaning umumiy tavsifi

Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar tahlilga kiritilgan tashkilotlar soni va Scopus bazasida qayd etilgan ilmiy nashrlar hajmi bo'yicha eng yirik toifani tashkil etadi.

Mazkur holat toifaning respublika oliy ta'lim tizimidagi qamrovi kengligi hamda unda turli ta'lim va fan yo'nalishlariga ixtisoslashgan OTTlar jamlangani bilan izohlanadi.

2025 yilda ushbu toifaga **Scopus tashkilot profili mavjud bo'lgan va milliy reytingda ishtirok etgan 62 ta OTT** kiritilgan. Ularda faoliyat yuritayotgan PO'Tning umumiy soni **27 799 nafarni** tashkil etgan.

Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlarning Scopus bazasida qayd etilgan ilmiy nashrlari **10 423 tani** tashkil etib, umumiy **18 424 ta** ilmiy nashrning **56,6 foizini** tashkil etadi.

Nashrlarning jurnallar kvartillari bo'yicha tarkibi: Q1 – **2 589 ta**, Q2 – **2 015 ta**, Q3 – **1 217 ta** va Q4 – **1 953 ta** ilmiy nashr.

Xalqaro iqtibos ta'siri bo'yicha **Top 10%** toifasida **1 542 ta**, **Top 1%** toifasida esa **249 ta** ilmiy nashr qayd etilgan. Bu ijtimoiy-gumanitar toifada nashrlarning umumiy hajmi bilan bir qatorda, yuqori kvartilli jurnallardagi va xalqaro miqyosda yuqori iqtibos ta'siriga ega ilmiy ishlar soni ham salmoqli ekanini ko'rsatadi.

Bitta OTTga **168,1 ta** ilmiy nashr to'g'ri kelgan. PO'T soniga nisbatan hisoblaganda esa har 100 nafar professor-o'qituvchiga **37,5 ta** ilmiy nashr to'g'ri kelgan. Toifaning umumiy nashrlar soni bo'yicha yetakchiligini talqin qilishda unga boshqa toifalarga nisbatan ko'proq OTT kiritilganini hisobga olish zarur.

8.2. Ilmiy nashrlar faolligi bo'yicha yetakchilar


Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar kesimida ilmiy nashrlar faolligi bir nechta yetakchi universitetlar hissasiga nisbatan yuqori darajada to'g'ri kelgan.

Umumiy nashrlar soni, yuqori kvartilli jurnallardagi nashrlar va xalqaro iqtibos ta'siri bo'yicha yetakchilik natijalari muayyan darajada farq qiladi.

Ilmiy nashrlarning **umumiy soni bo'yicha Urganch davlat universiteti 1 218 ta** nashr bilan **1-o'rinni** egallagan. Keyingi o'rinlarda **Toshkent davlat**

iqtisodiyot universitetida 989 ta, «Ma'mun» universitetida 908 ta, Samarqand davlat universitetida 745 ta, Termiz iqtisodiyot va servis universitetida 592 ta va O'zbekiston milliy pedagogika universitetida 483 ta nashr bilan turibdi.

Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar orasida ilmiy nashrlar umumiy soni bo'yicha yetakchilar **21-rasmda** keltirilgan.




21-rasm. Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar orasida ilmiy nashrlar umumiy soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Q1 jurnallaridagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 377 ta nashr bilan yetakchilik qilgan. O'zbekiston milliy pedagogika universitetida 313 ta, Urganch davlat universitetida 303 ta, Toshkent amaliy fanlar universitetida 217 ta, «Ma'mun» universitetida 167 ta va Samarqand davlat universitetida 160 ta Q1 nashri qayd etilgan.


Mazkur natijalar ayrim ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlarda ilmiy nashrlarni yuqori kvartilli jurnallarda chop etish faolligi sezilarli darajada shakllanganini ko'rsatadi.



22-rasm. Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar orasida Q1 jurnallaridagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.


Top 10% toifasidagi nashrlar soni bo'yicha ham **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 227 ta** natija bilan 1-o'rinni egallagan. Keyingi o'rinlarda **Urganch davlat universiteti 206 ta**, **O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 167 ta**, **«Ma'mun» universiteti 143 ta**, **Toshkent amaliy fanlar universiteti 133 ta** va **Alfraganus universiteti 98 ta** nashr bilan joylashgan.



23-rasm. Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar orasida Top 10% toifasidagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Top 1% toifasidagi nashrlar bo'yicha **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 54 ta natija** bilan yetakchilik qilgan. **Urganch davlat universitetida 32 ta**, **«Ma'mun» universitetida 31 ta**, **Alfraganus universitetida 29 ta**, **Termiz iqtisodiyot va servis universitetida 26 ta** hamda **Toshkent amaliy fanlar universitetida 19 ta** nashr qayd etilgan.



24-rasm. Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar orasida Top 1% toifasidagi ilmiy nashrlar soni bo'yicha yetakchilar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Qiyosiy natijalar umumiy nashrlar soni bo'yicha **Urganch davlat universiteti**, Q1 va yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlar bo'yicha esa **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti** yetakchilik qilganini ko'rsatadi.

«Ma'mun» universiteti, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti va **Toshkent amaliy fanlar universiteti** ham bir nechta asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchilar qatorida qayd etilgan.

Bu ijtimoiy-gumanitar toifada ilmiy nashrlar faolligi bir OTTda jamlanmagani hamda nashrlar hajmi, yuqori kvartilli jurnallardagi ishtirok va xalqaro iqtibos ta'siri bo'yicha yetakchi OTTlar doirasi nisbatan kengligini ko'rsatadi.

8.3. Nashrlar tarkibi va xalqaro iqtibos ta'siri

Ijtimoiy-gumanitar toifada OTTlarning nashr faolligi nashrlar soni, jurnallar kvartillari va xalqaro iqtibos ta'siri asosida baholanishi lozim.

Bu ko'rsatkichlar toifadagi ilmiy nashrlar tarkibi va ularning xalqaro ilmiy maydondagi nisbiy ta'sirini kengroq talqin qilish imkonini beradi.

Mazkur toifadagi **10 423 ta** nashrning **7 825 tasi** uchun jurnal kvartillari aniqlangan: Q1 – **2 593 ta**, Q2 – **2 015 ta**, Q3 – **1 219 ta** va Q4 – **1 998 ta**.

Kvartillari aniqlangan nashrlarning **33,3 foizi** Q1, **25,9 foizi** Q2, **15,7 foizi** Q3 va **25,1 foizi** Q4 jurnallarida chop etilgan.

Kvartillari aniqlangan nashrlarning **4 604 tasi** (59,2 foizi) Q1–Q2, **3 170 tasi** (40,8 foizi) Q3–Q4 jurnallarida chop etilgan. Demak, nashrlarning aksariyati yuqori kvartilli jurnallarga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, **2 649 ta** ilmiy nashr bo'yicha jurnal kvartillari mavjud emas.

Shu sababli kvartillar kesimidagi foizlarni **10 423 ta** umumiy nashrga emas, aynan kvartil toifasi aniqlangan **7 825 ta** nashrga nisbatan talqin qilish lozim.

Xalqaro iqtibos ta'siri bo'yicha toifada **Top 10%** guruhiga kiruvchi **1 542 ta**, shu jumladan, **Top 1%** guruhiga kiruvchi **249 ta** ilmiy nashr qayd etilgan. Ularning umumiy nashrlar sonidagi ulushi mos ravishda **14,8** va **2,4 foizni** tashkil etadi.

Bunda Top 1% ko'rsatkichi Top 10% toifasining eng yuqori iqtibos ta'siriga ega qismini ifodalashi sababli mazkur ko'rsatkichlarni o'zaro mustaqil toifalar sifatida qo'shib hisoblash mumkin emas.

22–24 rasmlarda keltirilgan natijalar **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Urganch davlat universiteti, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, «Ma'mun» universiteti** va **Toshkent amaliy fanlar universiteti** yuqori kvartilli hamda yuqori iqtibos ta'siriga ega nashrlar bo'yicha yetakchilar qatorida qayd etilganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari ijtimoiy-gumanitar toifasida ilmiy nashrlar faolligi faqat mutlaq hajmning yuqoriligi bilan emas, balki Q1 va Q2 jurnallaridagi nashrlar salmog'i hamda Top 10% va Top 1% toifalaridagi ilmiy natijalar bilan ham tavsiflanishini ko'rsatadi.

Biroq mazkur ko'rsatkichlarning OTTlar kesimida bir xil shakllanmagani ularni PO'T soniga nisbatan hisoblangan indeks va reyting natijalari bilan birgalikda baholash zarurligini anglatadi.

8.4. Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlarning reyting natijalari

Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlarning reyting natijalari ilmiy nashrlarning vaznlashtirilgan ko'rsatkichlari va PO'T asosida hisoblangan indeks bo'yicha shakllantirilgan.

Bunda nashrlarning umumiy sonidan tashqari, Q1–Q4 jurnallaridagi, Top 10% va Top 1% toifalaridagi nashrlar ham hisobga olingan.

Mazkur toifadagi OTTlarning reyting natijalari **5-jadvalda** keltirilgan.

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T	Umumiy nashrlar soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
1	Nodavlat	«Ma'mun» universiteti	282	908	31	143	167	146	58	88	15.37	3,000
2	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Amiti universiteti	19	89	0	15	6	3	9	2	13.37	2,610
3	Nodavlat	Tashkent International University of Education	43	41	2	12	19	15	3	2	9.30	1,816
4	Nodavlat	Toshkent amaliy fanlar universiteti	495	423	19	133	217	102	44	13	8.27	1,615
5	Nodavlat	Turan International University	97	367	0	10	28	57	14	26	7.71	1,505
6	Nodavlat	Termiz iqtisodiyot va servis universiteti	444	592	26	69	114	96	27	45	5.95	1,162
7	Davlat	Urganch davlat universiteti	1 179	1218	32	206	303	189	131	326	5.81	1,134
8	Davlat	O'zbekiston milliy pedagogika universiteti	945	483	9	167	313	101	10	20	5.24	1,022
9	Nodavlat	Alfraganus universiteti	634	466	29	98	139	110	42	48	5.23	1,021
10	Nodavlat	Toshkent Kimyo xalqaro universiteti	577	322	12	84	134	106	30	26	4.92	0,960
11	Davlat	Samarqand davlat universiteti	816	745	6	84	160	139	149	220	4.71	0,919
12	Davlat	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	1 690	989	54	227	377	154	77	44	4.27	0,833
13	Davlat	Shahrisabz davlat pedagogika instituti	262	91	8	42	57	19	0	4	4.16	0,812
14	Xorijiy filial	Toshkent xalqaro Vestminster universiteti	181	92	0	10	53	13	12	2	3.60	0,703
15	Nodavlat	Diplomat University	25	9	1	1	3	0	2	2	2.24	0,437
16	Davlat	«Ipak yo'li» xalqaro turizm va madaniy meros universiteti	145	44	0	6	22	10	3	4	2.15	0,420
17	Davlat	Jizzax davlat pedagogika universiteti	614	262	2	14	26	103	31	58	1.91	0,373

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T	Umumiy nashrlar soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
18	Nodavlat	Osiyo xalqaro universiteti	272	87	1	11	22	11	22	17	1.72	0,337
19	Davlat	Termiz davlat universiteti	679	257	0	17	25	78	60	67	1.69	0,329
20	Davlat	Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti	63	13	1	2	4	4	0	3	1.44	0,282
21	Davlat	Qarshi davlat universiteti	803	212	2	23	45	53	33	69	1.41	0,275
22	Davlat	Toshkent davlat yuridik universiteti	524	132	1	14	39	22	31	8	1.39	0,271
23	Davlat	Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali	130	23	1	3	6	8	4	4	1.22	0,237
24	Nodavlat	International School of Finance Technology and Science	263	62	1	9	10	10	10	24	1.16	0,227
25	Davlat	Chirchiq davlat pedagogika universiteti	680	169	1	5	31	45	38	47	1.15	0,224
26	Davlat	O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi	240	45	2	8	7	13	3	4	1.06	0,207
27	Davlat	Buxoro davlat universiteti	1 067	294	0	17	27	52	76	115	1.05	0,204
28	Davlat	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	357	124	0	7	19	22	2	5	1.03	0,201
29	Davlat	Urganch davlat pedagogika instituti	344	94	2	10	12	9	7	3	0.89	0,173
30	Davlat	Guliston davlat universiteti	664	136	1	10	10	44	18	30	0.84	0,164
31	Davlat	Samarqand davlat universitetining Urgut filiali	93	13	0	4	1	3	1	4	0.80	0,155
32	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish institut	32	6	0	0	2	0	2	1	0.78	0,153
33	Nodavlat	Angren universiteti	164	15	0	6	3	3	4	5	0.75	0,146
34	Davlat	Farg'ona davlat universiteti	1 186	216	0	6	48	35	34	85	0.74	0,144

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T	Umumiy nashrlar soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
35	Davlat	Qoraqalpoq davlat universiteti	1 139	327	2	10	17	32	39	203	0.71	0,139
36	Xorijiy filial	M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkentdagi filiali	57	8	0	1	2	1	1	4	0.70	0,137
37	Davlat	Namangan davlat universiteti	730	110	0	9	14	25	28	36	0.68	0,134
38	Davlat	O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali	197	25	0	2	3	6	7	8	0.59	0,115
39	Nodavlat	University of economics and pedagogy	432	62	0	3	10	10	15	23	0.59	0,114
40	Nodavlat	Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti	45	4	0	1	1	1	0	1	0.56	0,108
41	Davlat	Namangan davlat pedagogika instituti	201	30	0	1	2	9	4	14	0.55	0,107
42	Davlat	Navoiy davlat universiteti	776	113	0	9	14	13	13	62	0.51	0,099
43	Davlat	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti	243	77	1	2	5	1	2	36	0.50	0,098
44	Davlat	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	292	33	0	4	2	7	8	6	0.47	0,091
45	Davlat	Buxoro davlat pedagogika instituti	540	89	1	1	2	14	22	41	0.46	0,091
46	Nodavlat	Qo'qon universiteti	636	45	0	8	12	8	12	10	0.44	0,087
47	Davlat	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti	309	43	0	0	1	11	13	11	0.44	0,087
48	Nodavlat	Xalqaro Nordik universiteti	111	12	0	0	1	5	1	5	0.42	0,083
49	Davlat	Samarqand davlat universitetining Denov	311	35	0	0	4	10	6	11	0.41	0,080

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T	Umumiy nashrlar soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
		tadbirkorlik va pedagogika instituti										
50	Davlat	Termiz davlat pedagogika instituti	400	59	0	0	3	10	9	33	0.38	0,075
51	Davlat	Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti	596	61	0	3	6	13	14	15	0.38	0,074
52	Davlat	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	1 316	93	1	9	21	27	11	12	0.37	0,072
53	Davlat	Samarqand davlat chet tillar instituti	664	42	0	1	10	18	5	4	0.33	0,065
54	Nodavlat	Nukus innovatsion instituti	216	12	0	2	3	0	2	5	0.26	0,052
55	Davlat	Guliston davlat pedagogika instituti	224	20	0	0	0	7	1	8	0.24	0,047
56	Nodavlat	«Renessans» ta'lim universiteti	261	12	0	1	2	3	1	6	0.21	0,040
57	Nodavlat	Axborot texnologiyalari va menejment universiteti	154	8	0	0	2	1	2	1	0.20	0,039
58	Davlat	Qo'qon davlat universiteti	679	28	0	1	3	4	8	12	0.15	0,029
59	Nodavlat	Zarmed universiteti	295	9	0	1	2	2	1	2	0.15	0,029
60	Nodavlat	Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti	120	12	0	0	0	0	2	4	0.10	0,020
61	Davlat	Andijon davlat pedagogika instituti	458	11	0	0	1	2	4	2	0.08	0,016
62	Davlat	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	343	4	0	0	1	0	1	2	0.04	0,008
63	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Vebster universiteti ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi	Asosiy ish joyida faoliyat yurituvchi PO'T mavjud emas.									0

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T	Umumiy nashrlar soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
64	Xorijiy filial	Rossiya Tashqi ishlar vazirligi Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutining (MGIMO) Toshkent filiali	Profil mavjud emas									0
65	Nodavlat	TEAM University	Profil mavjud emas									0
66	Xorijiy filial	Varshava biznes va amaliy fanlar universitetining («Collegium Humanium») Andijon filiali	Profil mavjud emas									0
67	Xorijiy filial	«MEI» Milliy tadqiqot universitetining Toshkent filiali	Profil mavjud emas									0
68	Nodavlat	«TMC» instituti	Profil mavjud emas									0
69	Xorijiy filial	A.I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent filiali	Profil mavjud emas									0
70	Davlat	Andijon davlat chet tillari institut	Profil mavjud emas									0
71	Nodavlat	Buxoro innovatsiyalar universiteti	Profil mavjud emas									0
72	Nodavlat	Buxoro xalqaro universiteti	Profil mavjud emas									0
73	Nodavlat	Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti	Profil mavjud emas									0
74	Xorijiy filial	G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali	Profil mavjud emas									0
75	Nodavlat	Iqtisodiyot va pedagogika universiteti	Profil mavjud emas									0

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T	Umumiy nashrlar soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
76	Davlat	Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti	Profil mavjud emas									0
77	Davlat	Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti	Profil mavjud emas									0
78	Xorijiy filial	Farg'ona shahrida «Riga Nordic University»ning filialini	Profil mavjud emas									0
79	Nodavlat	Urganch RANCH texnologiyalar universiteti	Profil mavjud emas									0
80	Nodavlat	«Millat umidi» universiteti	Profil mavjud emas									0
81	Nodavlat	Navoiy innovatsiya instituti	Profil mavjud emas									0
82	Nodavlat	Oriental universiteti	Profil mavjud emas									0
83	Nodavlat	Osiyo texnologiyalar universiteti	Profil mavjud emas									0
84	Xorijiy filial	O'zbekistondagi Sharda universiteti	Profil mavjud emas									0
85	Davlat	Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti	Profil mavjud emas									0
86	Nodavlat	Profi universiteti	Profil mavjud emas									0
87	Nodavlat	Qarshi xalqaro universiteti	Profil mavjud emas									0
88	Davlat	Samarqand davlat pedagogika instituti	Profil mavjud emas									0
89	Nodavlat	«SAMBHRAM» universiteti	Profil mavjud emas									0
90	Nodavlat	Stars International University	Profil mavjud emas									0
91	Nodavlat	Toshkent gumanitar fanlar universiteti	Profil mavjud emas									0
92	Nodavlat	Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti	Profil mavjud emas									0

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumiy PO'T	Umumiy nashrlar soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
93	Nodavlat	British Management University in Tashkent	Profil mavjud emas									0
94	Xorijiy filial	Turkiya iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent filiali	Profil mavjud emas									0
95	Nodavlat	«Turon» universiteti	Profil mavjud emas									0
96	Nodavlat	«Vatan» universiteti	Profil mavjud emas									0
97	Nodavlat	Xalqaro innovatsion universitet	Profil mavjud emas									0
98	Nodavlat	«Yangi asr» universiteti	Profil mavjud emas									0
99	Nodavlat	Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti	Profil mavjud emas									0

5-jadval. Ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlarning Scopus ma'lumotlari asosida ilmiy nashrlar faolligi reytingi, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: indeks nashrlarning vaznlashtirilgan ko'rsatkichlari va PO'T soni asosida hisoblangan (maksimal ball – 3). Scopus tashkilot profili mavjud bo'lmagan OTTlar bo'yicha indikator hisoblanmay, 0 ball qo'yilgan.

Reyting natijalariga ko'ra, **«Ma'mun» universiteti 15,37 indeks** va **3 ball** bilan **1-o'rinni** egallagan. Universitetda **908 ta** ilmiy nashr, jumladan, Q1 jurnallarida 167 ta, Top 10% toifasida 143 ta va Top 1% toifasida 31 ta nashr qayd etilgan. Mazkur ko'rsatkichlarning 282 nafar professor-o'qituvchiga nisbatan hisoblanishi universitetning nisbiy ilmiy natijadorligi yuqori ekanini ko'rsatadi.

Reytingda **«Ma'mun» universiteti 15,37 indeks** va **3 ball** bilan 1-o'rinni egallagan. Universitetning **908 ta** nashri (Q1 – 167 ta, Top 10% –143 ta, Top 1% – 31 ta) **282 nafar** professor-o'qituvchiga nisbatan hisoblangan.

Keyingi o'rinlarni **Toshkent shahridagi Amiti universiteti** (13,37 indeks; 2,610 ball), **Tashkent International University of Education** (9,30; 1,816 ball), **Toshkent amaliy fanlar universiteti** (8,27; 1,615 ball) va **Turan International University** (7,71; 1,505 ball) egallagan.

Shuningdek, **Termiz iqtisodiyot va servis universiteti** (5,95; 1,162), **Urganch davlat universiteti** (5,81; 1,134 ball), **Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti** (5,24; 1,022 ball) va **Alfraganus universiteti** (5,23; 1,021 ball) yuqori natija qayd etgan.

Urganch davlat universiteti **1 218 ta** nashr bilan hajm bo'yicha yetakchi bo'lsa-da, indeksda 7-o'rinni, nashrlar soni bo'yicha 3-o'rindagi «Ma'mun» universiteti esa nisbiy ilmiy natijadorlikda 1-o'rinni egallagan.

Bu mutlaq nashrlar hajmi va nisbiy ilmiy natijadorlik o'rtasidagi farqni ko'rsatadi.

PO'T soni kam OTTlarda indeks yuqori shakllanishi mumkin. Shu bois natijalar OTT miqyosi, nashrlar soni va sifati bilan birga talqin qilinishi lozim. **62 ta** OTTda Scopus tashkilot profili va zarur ma'lumotlar mavjud bo'lgan, **38 tasida** esa profil yo'qligi sabab indikator hisoblanmagan.

8.5. Asosiy xulosalar

Birinchidan, ijtimoiy-gumanitar toifasidagi OTTlar tashkilotlar soni va ilmiy nashrlar hajmi bo'yicha eng yirik toifani tashkil etgan.

Scopus tashkilot profili mavjud bo'lgan **62 ta** OTTda **10 423 ta** ilmiy nashr qayd etilgan bo'lib, bu tahlil doirasida hisobga olingan jami nashrlarning **56,6 foiziga** teng.

Ikkinchidan, ilmiy nashrlarning umumiy soni bo'yicha **Urganch davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti** va **«Ma'mun» universiteti** yuqori natijalarni qayd etgan.

Yetakchi OTTlar guruhi faqat ushbu universitetlar bilan cheklanmagan. **Samarqand davlat universiteti, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Alfraganus universiteti** hamda **Toshkent amaliy fanlar universitetida** ham salmoqli ilmiy nashrlar faolligi shakllangan.

Uchinchidan, kvartil toifasi aniqlangan **7 825 ta** nashrning **59,2 foizi Q1 va Q2 jurnallarida** chop etilgan. **Top 10%** toifasida **1 542 ta** va **Top 1%** toifasida **2 ta** nashr qayd etilgani mazkur toifada xalqaro iqtibos ta'siriga ega ilmiy natijalarning muayyan hajmi shakllanganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, umumiy nashrlar soni bo'yicha yetakchilik va reyting indeksi bo'yicha yetakchilik turli OTTlarga to'g'ri kelgan.

Urganch davlat universiteti 1 218 ta nashr bilan mutlaq ko'rsatkich bo'yicha 1-o'rinni egallagan bo'lsa, **«Ma'mun» universiteti 15,37 indeks** va **3 ball bilan reytingda yetakchilik qilgan**. Bu natija OTTlarni baholashda nashrlar hajmi bilan bir qatorda, ularning kvartillar va yuqori iqtibos ko'rsatkichlari bo'yicha tarkibi hamda PO'T soniga nisbatan hisoblangan natijadorlikni ham inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.

Beshinchidan, ijtimoiy-gumanitar toifada ilmiy faol OTTlarning nisbatan keng guruhi shakllangan bo'lsa-da, tashkilotlar o'rtasida ilmiy nashrlar hajmi va nisbiy ilmiy natijadorlik bo'yicha sezilarli farqlar saqlanib qolgan.

Xususan, ushbu toifadagi OTTlarning nisbatan katta qismi, ya'ni **38 ta OTTda Scopus tashkilot profili mavjud emas**.

IX. IJOD (SPORT) TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI

9.1. Toifaning umumiy tavsifi

Ijod (sport) toifasidagi OTTlar Scopus tashkilot profili mavjud bo'lgan va milliy reytingda ishtirok etgan tashkilotlar soni bo'yicha tahlildagi eng kichik toifani tashkil etadi.

Mazkur toifaga **3 ta OTT** kiritilgan bo'lib, ularda faoliyat yuritayotgan PO'Tning umumiy soni **1 231 nafarni** tashkil etgan. Ushbu OTTlarning Scopus bazasida qayd etilgan ilmiy nashrlari umumiy soni **16 taga** teng bo'lgan.

Kvartillar bo'yicha **15 ta** nashr qayd etilgan: Q1 – **1 ta**, Q2 – **7 ta**, Q3 – **6 ta** va Q4 – **1 ta**. Top 10% va Top 1% toifalarida nashrlar mavjud emas. Bir OTTga o'rtacha **5,3 ta**, har 100 nafar professor-o'qituvchiga **1,3 ta** Scopus nashri to'g'ri kelgan.

Ko'rsatkichlar boshqa toifalarga nisbatan past bo'lsa-da, ular ijod (sport) OTTlar faoliyatining umumiy samaradorligini to'liq ifodalamaydi. Chunki san'at, madaniyat va sport natijalari ko'pincha an'anaviy ilmiy nashrlardan boshqa shakllarda namoyon bo'ladi.

9.2. Ilmiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari

Ijod (sport) toifasidagi OTTlarni baholashda natijalarning sohaviy shakllari hisobga olinishi lozim.

San'at va madaniyatda ular asar, kompozitsiya, ijro, ko'rgazma, dizayn va raqamli mahsulotlar, sportda esa mashg'ulot metodikalari, tayyorlash texnologiyalari va kasbiy yutuqlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ularning salmoqli qismi Scopus bazasida nashr sifatida qayd etilmagani sababli, aniqlangan **16 ta** nashr OTTlarning umumiy natijadorligini to'liq ifodalamaydi.

Bu yondashuv xalqaro amaliyotga mos. **Buyuk Britaniyaning REF 2021** tizimida artefakt, kompozitsiya, dizayn, ko'rgazma, ijro va raqamli yoki vizual media tadqiqot natijalari sifatida teng baholanadi.⁸

⁸ Research Excellence Framework. *Submitting practice research outputs to REF 2021*. URL: <https://2021.ref.ac.uk/media/1238/submitting-practice-research-outputs-to-ref2021.pdf> (24.07.2026).

Shu bois Scopus ko'rsatkichlari yagona mezon bo'la olmaydi va ijodiy ishlar, ijrolar, dizayn mahsulotlari, sport yutuqlari hamda ekspert bahosi bilan to'ldirilishi lozim.

Past Scopus ko'rsatkichi umumiy faoliyat pastligini emas, natijalarning bir qismi ilmiy-metrik bazalardan tashqari shakllarda yaratilishini ham anglatishi mumkin.

9.3. Reyting natijalari

Ijod (sport) toifasidagi OTTlarning reyting natijalari ilmiy nashrlarning vaznlashtirilgan ko'rsatkichlari hamda PO'T asosida hisoblangan indeks bo'yicha shakllantirilgan.

Mazkur toifada ilmiy nashrlar soni kam bo'lgani sababli reyting natijalari OTTlarning faqat Scopus bazasida aks etgan ilmiy nashrlar faolligini ifodalaydi.

Toifaga kiritilgan OTTlarning reyting natijalari **6-jadvalda** keltirilgan.

O'rin	Mulkchilik shakli	OTT nomi	Umumi y PO'T soni	Umumiy nashrlar soni	Top 1%	Top 10%	Q1	Q2	Q3	Q4	Indeks	Ball
1	Davlat	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	497	11	0	0	0	6	5	0	0.11	2,000
2	Davlat	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti	445	4	0	0	1	0	1	1	0.03	0,519
3	Davlat	Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	289	1	0	0	0	1	0	0	0.02	0,369
4	Xorijiy filial	S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universitetining Toshkent shahridagi filiali	Profil mavjud emas									0
5	Davlat	O'zbekiston davlat konservatoriyasi	Profil mavjud emas									0
6	Davlat	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi	Profil mavjud emas									0
7	Davlat	Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti	Profil mavjud emas									0
8	Davlat	Yunus Rajabiy nomidagi O'zbekiston milliy musiqa san'ati instituti	Profil mavjud emas									0

9	Davlat	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali	<i>Profil mavjud emas</i>	0
10	Davlat	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filiali	<i>Profil mavjud emas</i>	0
11	Davlat	O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali	<i>Profil mavjud emas</i>	0
12	Davlat	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali	<i>Profil mavjud emas</i>	0

6-jadval. Ijod (sport) toifasidagi OTTlarning Scopus ma'lumotlari asosida ilmiy nashrlar faolligi reytingi, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: indeks nashrlarning vaznlashtirilgan ko'rsatkichlari va PO'T soni asosida hisoblangan (maksimal ball – 2). Scopus tashkilot profili mavjud bo'lmagan OTTlar bo'yicha indikator hisoblanmay, 0 ball qo'yilgan.

Reytingda **O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti** **0,11 indeks** va **2 ball bilan 1-o'rinni** egallagan. Universitetning **11 ta** nashri (Q2 – 6 ta, Q3 – 5 ta) toifadagi jami nashrlarning **68,8 foizini** tashkil etgan.

Keyingi o'rinlarni **O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti** (0,03 indeks; 0,519 ball; 4 ta nashr, ulardan Q1, Q3 va Q4da 1 tadan) hamda **Milliy rassomlik va dizayn instituti** (0,02 indeks; 0,369 ball; 1 ta Q2 nashr) egallagan.

Toifadagi **12 ta** OTTdan faqat **3 tasida** Scopus tashkilot profili va zarur ma'lumotlar mavjud bo'lgan. Reyting jami **16 ta** nashrga asoslangani sababli uni barqaror va keng qamrovli ilmiy natijadorlik bahosi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas.

9.4. Asosiy xulosalar

Birinchidan, ijod (sport) toifasidagi **12 ta** OTTdan faqat **3 tasida Scopus tashkilot profili** mavjud bo'lib, jami **16 ta** nashr qayd etilgan. Bu bir OTTga o'rtacha **5,3 ta**, har 100 nafar professor-o'qituvchiga **1,3 ta** nashrni tashkil etgan.

Ikkinchidan, kvartillari aniqlangan **15 ta** nashrning **1 tasi** Q1, **7 tasi** Q2, **6 tasi** Q3 va **1 tasi** Q4 jurnallarida chop etilgan. Top 10% va Top 1% toifalarida nashrlar mavjud emas.

Uchinchidan, **O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti** **11 ta** nashr (68,8 foiz), **0,11 indeks** va **2 ball** bilan toifa yetakchisi bo'lgan. Keyingi o'rinlarni **O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti** hamda **Milliy rassomlik va dizayn instituti** egallagan.

To'rtinchidan, **9 ta** OTTda Scopus tashkilot profili mavjud emasligi va sohaviy natijalar bazada to'liq aks etmasligi tahlil qamrovini cheklagan.

X. TIZIMLI FARQLAR VA ILMIY YETAKCHILIK

10.1. OTTlar toifalari bo'yicha yetakchi natijalar

Avvalgi boblarda o'tkazilgan tahlil har bir OTT toifasida ilmiy nashrlarning umumiy soni, yuqori kvartilli jurnallardagi ishtirok va xalqaro iqtibos ta'siri bo'yicha yetakchi tashkilotlar shakllanganini ko'rsatdi.

Biroq yetakchilik barcha toifalarda bir xil taqsimlanmagan: ayrim toifalarda bitta OTT bir nechta ko'rsatkich bo'yicha ustunlik qilgan bo'lsa, boshqalarida yetakchilik turli tashkilotlar o'rtasida taqsimlangan.

OTTlar toifalari bo'yicha asosiy ilmiy ko'rsatkichlarning yetakchilari 7-jadvalda umumlashtirilgan.

7-jadval. OTTlar toifalari bo'yicha asosiy ilmiy ko'rsatkichlar yetakchilari, 2025 yil

OTT toifasi	Umumiy nashrlar	Q1 nashrlari	Top 10% nashrlar	Top 1% nashrlar
TOP-1000	TIQXMMI MTU 1 017	TIQXMMI MTU 264	TIQXMMI MTU 127	TIQXMMI MTU 17
Amaliy	Toshkent davlat transport universiteti 558	«Yangi O'zbekiston» universiteti 328	«Yangi O'zbekiston» universiteti 173	«Yangi O'zbekiston» universiteti 21
Tibbiyot	Toshkent davlat tibbiyot universiteti 413	Central Asian University 73	Samarqand davlat tibbiyot universiteti 37	Central Asian University 3
Ijtimoiy- gumanitar	Urganch davlat universiteti 1 218	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 377	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 227	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 54
Ijod (sport)	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 11	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 1	-	-

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

TOP–1000 toifasida «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti to‘rtala asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha yetakchilik qilgan.

Amaliy toifada **Toshkent davlat transport universiteti** umumiy nashrlar soni, «**Yangi O‘zbekiston**» universiteti esa Q1, Top 10% va Top 1% ko‘rsatkichlari bo‘yicha yetakchi bo‘lgan.

Tibbiyot toifasida **Toshkent davlat tibbiyot universiteti** umumiy nashrlar soni, **Central Asian University** Q1 va Top 1%, **Samarqand davlat tibbiyot universiteti** esa Top 10% ko‘rsatkichi bo‘yicha yuqori natijani qayd etgan.

Ijtimoiy-gumanitar toifasida **Urganch davlat universiteti** 1 218 ta nashr bilan umumiy nashrlar soni, **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti** esa Q1 (377 ta), Top 10% (227 ta) va Top 1% (54 ta) ko‘rsatkichlari bo‘yicha milliy yetakchi bo‘lgan.

Ijod (sport) toifasida **O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti** umumiy nashrlar soni, **O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti** Q1 nashrlari bo‘yicha yetakchilik qilgan. Top 10% va Top 1% toifalarida nashrlar qayd etilmagan.

Natijalar umumiy nashrlar soni bo‘yicha yetakchilik yuqori kvartilli va yuqori iqtibosli nashrlar bo‘yicha ham yetakchilikni anglatmasligini ko‘rsatadi. Shu bois ilmiy natijadorlik nashrlar hajmi, kvartillar, iqtibos ta’siri va PO‘T soniga nisbatan birgalikda baholanishi lozim.

10.2. Ilmiy nashrlar faolligi bo‘yicha milliy yetakchilar

OTTlarning reyting ballari toifalar kesimida alohida me‘yorlashtirilgani va maksimal ballar farq qilgani sababli ularni milliy darajada to‘g‘ridan-to‘g‘ri qiyoslash mumkin emas.

Shu bois yetakchilar **umumiy nashrlar soni, Q1, Top 10% va Top 1%** ko‘rsatkichlari asosida aniqlandi.

Urganch davlat universiteti 1 218 ta nashr bilan barcha OTTlar orasida eng yuqori natijani qayd etgan. Unda **303 ta Q1, 206 ta Top 10% va 32 ta Top 1%** nashri mavjud.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 989 ta umumiy nashr, jumladan, **377 ta Q1, 227 ta Top 10% va 54 ta Top 1%** nashri bilan so‘nggi uchta ko‘rsatkich bo‘yicha milliy yetakchi bo‘lgan.

«Yangi O'zbekiston» universitetida 507 ta nashr, jumladan, **328 ta Q1, 173 ta Top 10%** va **21 ta Top 1%** nashri qayd etilgan. Ushbu natijalarning **95 nafar** professor-o'qituvchiga nisbatan shakllangani universitetning nisbiy natijadorligi yuqoriligini ko'rsatadi.

«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti 1 017 ta umumiy, **264 ta Q1, 127 ta Top 10%** va **17 ta Top 1%** nashri bilan TOP-1000 toifasida yetakchilik qilgan.

Shuningdek, **O'zbekiston Milliy universitetida 966 ta, «Ma'mun» universitetida 908 ta** va **Samarqand davlat universitetida 745 ta** nashr qayd etilgan. **«Ma'mun» universitetining 143 ta Top 10%** va **31 ta Top 1%** nashri uning xalqaro iqtibos ta'siri yuqoriligini ko'rsatadi.

O'zbekiston milliy pedagogika universitetida 483 ta umumiy nashr bo'lishiga qaramay, ularning **313 tasi Q1** va **167 tasi Top 10%** toifasiga kirgan. Bu nashrlar soni nisbatan kam bo'lgan OTTlarda ham yuqori sifatli nashrlar ulushi katta bo'lishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Umuman, natijalar O'zbekistonda nashrlar hajmi, jurnallar kvartillari va xalqaro iqtibos ta'siri bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega OTTlar guruhi shakllanganini ko'rsatadi.

10.3. Ilmiy nashrlar faolligining OTTlar kesimida jamlanishi

2025 yilda tahlilga kiritilgan **105 ta** OTTning Scopus tashkilot profillarida jami **18 424 ta** ilmiy nashr qayd etilgan. Ularning taqsimoti OTTlar kesimida sezilarli farqlangan.

Urganch davlat universiteti, «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti va **Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida** jami **3 224 ta** yoki barcha nashrlarning **17,5 foizi** qayd etilgan.

Dastlabki **5 ta** OTT, shu jumladan **O'zbekiston Milliy universiteti** va **«Ma'mun» universiteti** hissasiga **5 098 ta** yoki **27,7 foiz** nashr to'g'ri kelgan.

Yetakchi **10 ta** OTTda esa **8 288 ta** nashr jamlangan. Demak, tahlildagi OTTlarning **9,5 foizini** tashkil etuvchi ushbu guruh barcha nashrlarning **45 foizini** shakllantirgan. Qolgan **95 ta** OTT hissasiga **10 136 ta** yoki **55 foiz** nashr to'g'ri kelgan.

Bu Scopus bazasidagi **nashrlarning salmoqli qismi cheklangan sondagi OTTlarda jamlanganini** ko'rsatadi. Biroq natijalarga ilmiy salohiyat bilan birga OTTning miqyosi, PO'T, fan yo'nalishlari, infratuzilmasi, xalqaro hamkorligi va Scopus tashkilot profilining to'liqligi ham ta'sir qiladi.

Shu bois jamlanish darajasi reyting ballari, PO'T soniga nisbatan natijadorlik, jurnallar kvartillari va iqtibos ta'siri bilan birgalikda baholanishi lozim.

10.4. Ilmiy nashrlar faolligi cheklangan OTTlar

2025 yilda tahlilga Scopus tashkilot profiliga ega bo'lgan **105 ta** OTT kiritilgan bo'lib, ularda jami **18 424 ta** ilmiy nashr qayd etilgan.

Scopus bazasida ilmiy nashrlar soni eng kam qayd etilgan OTTlar **8-jadvalda** keltirilgan.

OTT nomi	Nashrlar
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	1
I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent filiali	4
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti	4
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	4
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti	4

8-jadval. Scopus bazasida ilmiy nashrlar soni eng kam qayd etilgan OTTlar, 2025 yil

Manba: Scopus ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Mazkur **5 ta** OTTda jami 17 ta nashr qayd etilgan bo'lib, bu umumiy nashrlarning qariyb 0,1 foizini tashkil etadi.

Eng past ko'rsatkich **Milliy rassomlik va dizayn institutida** – 1 ta nashr. milliy yetakchi **Urganch davlat universitetida** esa **1 218 ta** nashr qayd etilgan bo'lib, ular o'rtasidagi farq **1 217 tani** tashkil etadi.

Biroq nashrlar sonining kamligi OTTning umumiy ilmiy yoki ijodiy salohiyati pastligini anglatmaydi. Natijalarga OTTning sohaviy xususiyati, miqyosi, tashkil etilgan davri, nashr an'analari va Scopus tashkilot profilining to'liqligi ta'sir qilishi mumkin.

Xususan, san'at va dizayn sohalarida natijalar ko'rgazma, ijodiy asar va loyiha shaklida ham namoyon bo'ladi.

Shu bois mazkur OTTlarni baholashda nashrlar soni bilan birga sohaviy xususiyatlar, PO'T va Scopus tashkilot profilining ma'lumotlarni qamrab olish darajasi ham hisobga olinishi lozim.

10.5. Scopus tashkilot profili mavjud bo'lmagan OTTlar

Tahlil materiallarida **63 ta** OTTda **Scopus tashkilot profili mavjud emasligi** qayd etilgan. Ularning to'liq ro'yxati **1-ilovada** keltirilgan.

Ushbu OTTlarning **34 tasi ijtimoiy-gumanitar, 12 tasi amaliy, 9 tasi ijod (sport), 6 tasi tibbiyot** toifasiga mansub. Qolgan 2 ta OTTning toifasi manba jadvalida ko'rsatilmagan.

Scopus tashkilot profillari nashrlardagi affiliatsiya ma'lumotlari asosida algoritmik shakllantiriladi. Tashkilot nomining turlicha yozilishi ayrim nashrlarning profil tarkibiga kirmay qolishi yoki bir nechta profilga bo'linishiga olib kelishi mumkin. Shu bois Elsevier muqobil nomlar va profilga birlashtirilgan nashrlarni muntazam tekshirishni tavsiya etadi.⁹

Scopus tashkilot profilining mavjud emasligi OTTda ilmiy faoliyat yoki Scopus bazasida indekslangan nashrlar yo'qligini anglatmaydi.

Biroq bu nashrlar, iqtiboslar va xalqaro hamkorlik natijalarini yaxlit baholash imkoniyatini cheklaydi.

Shu sababli OTTlarning asosiy va muqobil nomlarini muvofiqlashtirish, nashrlarda yagona affiliatsiya shaklidan foydalanish, tarqoq profillarni birlashtirish hamda ularga birlashtirilgan nashrlarni muntazam tekshirish zarur.

10.6. Asosiy xulosalar

Tahlil natijalari ilmiy nashrlar faolligi OTTlar toifalari va tashkilotlar kesimida sezilarli farqlanishini ko'rsatadi.

Birinchidan, umumiy nashrlar soni bo'yicha **ijtimoiy-gumanitar**, bir OTTga to'g'ri keladigan o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha esa **TOP-1000 toifasi** yetakchilik qilgan. Bu natijalarni OTTlar soni, miqyosi va PO'Tni hisobga olgan holda baholash zarur.

⁹ Elsevier. *How do I use the Institution Profile Wizard?* Scopus Support Center.
URL: https://service.elsevier.com/app/answers/detail/a_id/25553/supporthub/scopus/ (24.07.2026).

Ikkinchidan, milliy ilmiy yetakchilik ko'p o'lchovli xususiyatga ega. **Urganch davlat universiteti** umumiy nashrlar soni, **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti** esa Q1, Top 10% va Top 1% nashrlari bo'yicha yetakchi bo'lgan. Boshqa OTTlar ham alohida ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori natijalar qayd etgan.

Uchinchidan, **105 ta** OTTning dastlabki **10 tasi** jami nashrlarning **45 foizini** shakllantirgan. Bu ilmiy faol OTTlar doirasini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, nashrlar soni eng kam bo'lgan **5 ta** OTTda jami **17 ta** nashr qayd etilgan. Ushbu natijalarni OTTlarning **sohaviy xususiyatlari, miqyosi, tashkil etilgan davri va ilmiy natijalarni e'lon qilish shakllari** bilan birgalikda talqin qilish lozim.

Beshinchidan, **63 ta** OTTda Scopus tashkilot profili mavjud emasligi ma'lumotlar qamrovini cheklagan. Shu bois affiliatsiya ma'lumotlarini standartlashtirish va tashkilot profillarini tartibga solish zarur.

Umuman, turli toifadagi OTTlar uchun ularning sohaviy xususiyatlari va ilmiy salohiyatiga mos tabaqalashtirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

XI. ILMIY NASHRLAR FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALIY TAVSIYALAR

Tahlil O'zbekiston OTTlarning ilmiy nashrlari va xalqaro iqtibos ta'siri o'sib borayotganini, biroq natijalar tashkilotlar kesimida notekis taqsimlanganini ko'rsatdi.

Yuqori ko'rsatkichlar cheklangan sondagi OTTlarda jamlangan, ayrim tashkilotlarda nashrlar faolligi past, **63 ta** OTTda esa Scopus tashkilot profili mavjud emas.

Shu bois tavsiyalar nashrlar sonini oshirish bilan cheklanmasdan, ularning **sifati, iqtibos ta'siri, ilmiy halollik, sohaviy xususiyatlar** va **ma'lumotlar to'liqligini** qamrab olishi lozim.

11.1. Ilmiy nashrlar sifatini oshirish

OTTlarni baholashda nashrlar soni bilan birga **Q1 va Q2, Top 10% va Top 1%** toifalariga kiruvchi nashrlar hamda fan sohasi bo'yicha me'yorlashtirilgan iqtibos ta'siri hisobga olinishi zarur.

Har bir OTTning ilmiy rivojlanish dasturida istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari, maqsadli jurnallar, ilmiy jamoalar vazifalari va natijalarni baholash mezonlari belgilanishi lozim.

Qo'lyozmalarni jurnalga yuborishdan oldin **metodologiya, ma'lumotlar tahlili, ilmiy yangilik, tadqiqot etikasi** va **akademik uslub** bo'yicha ichki ekspertizadan o'tkazish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq.

Professor-o'qituvchilar uchun **akademik yozuv, statistik tahlil** va **jurnal tanlash** bo'yicha amaliy dasturlar tashkil etilib, bibliografik tahlil, ilmiy tahrir, statistik maslahat va tadqiqot ma'lumotlarini boshqarish xizmatlari yo'lga qo'yilishi zarur.

11.2. Ilmiy halollik va retraksiya qilingan nashrlarni monitoring qilish

Ilmiy nashrlar sifatini baholashda retraksiya qilingan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ham hisobga olish zarur.

Retraksiya – nashr e'lon qilinganidan keyin uning ishonchliligiga jiddiy shubha tug'ilganda qo'llaniladigan rasmiy tuzatish mexanizmi.

Milliy agentlik hisob-kitoblariga ko'ra, **2022–2024 yillarda** O'zbekistonga affiliatsiyalangan **19 729 ta** Scopus nashrining **368 tasi** (1,87 foizi) **retraksiya** qilingan.

Ma'lumotlar 2026 yil 30 yanvar holatiga shakllantirilgan bo'lib, keyingi o'zgarishlarni qamrab olmaydi.¹⁰

Ushbu ko'rsatkichni e'lon qilishda hisob birligi, takroriy yozuvlarni chiqarish tartibi, ma'lumot manbalari va retraksiya maqomini aniqlash mezonlari ochiq ko'rsatilishi zarur.

Retraksiya muallif yoki OTTning ilmiy qoidabuzarligini avtomatik ravishda isbotlamaydi. U jiddiy metodologik yoki hisoblash xatosi, ishonchsiz natija, takroriy nashr, plagiat yoxud tadqiqot etikasi buzilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bois **COPE tavsiyalariga muvofiq**, har bir holat retraksiya haqidagi rasmiy xabar asosida alohida o'rganilishi lozim.¹¹

Milliy reytingda hisoblash sanasiga qadar rasman retraksiya qilingan nashrlarni umumiy nashrlar, Q1–Q4, Top 10% va Top 1% ko'rsatkichlaridan chiqarish maqsadga muvofiq.

Biroq shu nashr uchun qo'shimcha salbiy ball berish retraksiya sababi, OTT mas'uliyati va e'tiroz bildirish tartibi belgilanganidan keyingina ko'rib chiqilishi mumkin.

Times Higher Education amaliyotida ham Scopus bazasida retraksiya qilingani belgilangan nashrlar bibliometrik hisob-kitoblarga kiritilmaydi.¹²

Scopus, Crossref–Retraction Watch va nashriyotlarning rasmiy xabarlari asosida muntazam yangilanadigan reyestr shakllantirilishi lozim.

Unda DOI, nashr va retraksiya sanasi, sabab, rasmiy xabar, mualliflar, affiliatsiyalar va tekshirilganlik holati qayd etilib, retraksiya, tuzatish, xavotir bildirish va qayta tiklash holatlari alohida tasniflanishi zarur.¹³

Retraksiya ma'lumotlaridan jazolash vositasi emas, balki tadqiqotlar ishonchliligini oshirish va nosog'lom nashr amaliyotining oldini olish mexanizmi sifatida foydalanish lozim.

¹⁰ Scopus bazasidan 30.01.2026 holatida olingan ma'lumotlar asosida Milliy agentlik hisob-kitoblari.

¹¹ COPE Council. *COPE Retraction Guidelines — English*. Version 2, November 2019.

DOI: <https://doi.org/10.24318/cope.2019.1.4> (24.07.2026).

¹² Times Higher Education. *World University Rankings 2024: Questions and Answers. APAC Session*.

URL: https://www.timeshighereducation.com/sites/default/files/wur_mc_-_apac_qa.pdf (24.07.2026).

¹³ Crossref. *Retraction Watch: Documentation*.

URL: <https://www.crossref.org/documentation/retrieve-metadata/retraction-watch/> (24.07.2026).

11.3. Xalqaro iqtibos ta'sirini kuchaytirish

2023–2025 yillarda **Top 10%** toifasidagi nashrlar soni **452 tadan 1 156 taga** oshgan. Biroq **Top 1%** nashrlar soni 2024 yildagi **91 tadan** 2025 yilda **78 taga** kamaygan. Bu eng yuqori ta'sirga ega tadqiqotlarni barqaror shakllantirish uchun qo'shimcha choralar zarurligini ko'rsatadi.

OTTlar ustuvor fan yo'nalishlari bo'yicha yuqori iqtibos ta'siriga ega mavzular, ilmiy markazlar va hamkorlarni aniqlab, yetakchi xorijiy guruhlar bilan uzoq muddatli tadqiqot dasturlari va qo'shma loyihalarni amalga oshirishi lozim.

Maqolalarning nomi, annotatsiyasi va kalit so'zlarini sifatli tayyorlash, ORCID profillarini to'g'ri yuritish, yagona affiliatsiya shaklidan foydalanish hamda ochiq tadqiqot ma'lumotlarini kengaytirish nashrlarning xalqaro ko'rinuvchanligini oshiradi.

Top 10% va Top 1% nashrlar dinamikasi fan sohasi, nashr yili va hujjat turi bo'yicha me'yorlashtirilgan holda har yili monitoring qilinishi zarur.

O'z-o'ziga iqtibos keltirish, kelishilgan o'zaro iqtiboslar va iqtiboslarni sun'iy oshirishga yo'l qo'yilmasligi lozim.

11.4. Ilmiy nashrlar faolligi cheklangan OTTlarni qo'llab-quvvatlash

Qo'llab-quvvatlash choralari OTTning fan yo'nalishi, miqyosi, tashkil etilgan davri, kadrlar salohiyati, ilmiy infratuzilmasi va Scopus tashkilot profili holatiga muvofiq belgilanishi zarur.

Har bir OTTda ilmiy nashrlar faolligini cheklayotgan omillar bo'yicha diagnostika o'tkazilib, uning natijasida **3 yillik rivojlantirish rejasi** ishlab chiqilishi lozim.

Rejada **nashrlar sifati, ilmiy loyihalar, xalqaro hammualliflik va yosh tadqiqotchilar ishtiroki** bo'yicha real ko'rsatkichlar belgilanishi kerak.

Ilmiy faol universitetlar negizida OTTlararo maslahat tarmoqlari tashkil etilib, **tadqiqot metodologiyasi, loyiha tayyorlash, ma'lumotlarni tahlil qilish** va **qo'lyozmalarni nashrga tayyorlash** bo'yicha amaliy ko'mak ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

Kichik ilmiy grantlar, qo'shma laboratoriyalar, tadqiqot uchun ajratilgan vaqt va markazlashtirilgan akademik yozuv hamda **statistik maslahat xizmatlarini** joriy etish zarur.

Qo'llab-quvvatlash ma'muriy nashr kvotalariga aylanmasligi kerak. Ijod (sport) toifasidagi OTTlarda esa ilmiy maqolalar bilan birga ijodiy ishlar va sport natijalari ham inobatga olinishi zarur.

11.5. Scopus tashkilot profillarini tartibga solish

Tahlil materiallarida **63 ta** OTTda Scopus tashkilot profili mavjud emasligi qayd etilgan.¹⁴

Mavjud profillarda ham nashrlarning turli profillarga tarqalishi yoki boshqa tashkilotga noto'g'ri biriktirilishi xavfi mavjud.

Har bir OTTda **Scopus tashkilot profilini yuritish uchun vakolatli mas'ul belgilanib, rasmiy va muqobil nomlar, tashkiliy tuzilma, manzillar va biriktirilgan nashrlar** muntazam tekshirilishi lozim.

OTT nomining o'zbek, rus va ingliz tillaridagi rasmiy shakllari tasdiqlanib, ilmiy nashrlar uchun yagona affiliatsiya standarti ishlab chiqilishi zarur. Unda tashkilot nomi, tarkibiy bo'linma, shahar va mamlakatni ko'rsatish tartibi belgilanadi. Muallifning xizmat elektron pochtasi esa alohida aloqa ma'lumoti sifatida ko'rsatilishi lozim.

Institution Profile Wizard orqali profil yaratish, muqobil nomlarni kiritish, iyerarxiyani yangilash va noto'g'ri biriktirilgan nashrlar bo'yicha tuzatish so'rash mumkin. Ushbu vositadan faqat OTT tomonidan vakolat berilgan foydalanuvchilar foydalana oladi, murojaatlarni ko'rib chiqish esa muayyan vaqt talab qiladi.¹⁵

Milliy darajada OTTlarning rasmiy nomi, Scopus identifikatori, muqobil nomlari, profil holati, nashrlar soni va oxirgi tekshiruv sanasini qamrab oluvchi elektron reyestr shakllantirilishi maqsadga muvofiq.¹⁶

Reyting hisob-kitoblaridan oldin dastlabki ma'lumotlar OTTlarga tekshirish uchun taqdim etilib, xato va yetishmayotgan ma'lumotlar bo'yicha dalil keltirish hamda tuzatish so'rash uchun aniq muddat berilishi lozim. Profili mavjud bo'lmagan OTTlarga alohida uslubiy yordam ko'rsatilishi zarur.

¹⁴ Scopus bazasidan olingan ma'lumotlar va 1-ilova asosida Milliy agentlik hisob-kitoblari.

¹⁵ Elsevier. *About the Institution Profile Wizard*. Scopus Support Center.

URL: https://service.elsevier.com/app/answers/detail/a_id/25554/supporthub/scopus/ (24.07.2026).

¹⁶ Elsevier. *How do I use the Institution Profile Wizard?* Scopus Support Center.

URL: https://service.elsevier.com/app/answers/detail/a_id/25553/supporthub/scopus/ (24.07.2026).

Mazkur choralar **Scopus** ma'lumotlarining to'liqligi va ishonchliligini oshirish, OTTlarning ilmiy natijalarini to'g'ri aks ettirish hamda milliy reyting hisob-kitoblaridagi ma'lumotlar xatosini kamaytirishga xizmat qiladi.

11.6. Xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish

Xalqaro hamkorlik strategiyalari OTTning **ustuvor fan yo'nalishlari** va **ilmiy salohiyatiga** asoslanishi lozim. Hamkor tanlashda uning reytingi bilan birga tegishli sohadagi natijalari, infratuzilmasi va hamkorlik tajribasi hisobga olinishi zarur.

Hamkorlik qo'shma loyihalar va laboratoriyalar, xalqaro grantlar, doktorantlarga qo'shma rahbarlik, tadqiqotchilar mobilligi hamda ilmiy ma'lumotlardan birgalikda foydalanish orqali rivojlantirilishi kerak. Formal hammualliflikka yo'l qo'yilmasdan, har bir muallifning hissasi va mas'uliyati belgilanishi lozim.

Natijadorlik shartnomalar soni bilan emas, **qo'shma loyihalar, jalb qilingan grantlar, yuqori kvartilli va yuqori iqtibosli nashrlar**, qo'shma ilmiy rahbarlik va tadqiqotchilar mobilligi asosida baholanishi zarur.

Times Higher Education World University Rankings 2025 metodologiyasida ham xalqaro hammualliflik «International Outlook» tarkibida **2,5 foiz** vaznga ega.¹⁷

11.7. OTTlar toifalariga mos tabaqalashtirilgan yondashuvlarni joriy etish

Barcha OTTlarga bir xil talab belgilash ularning sohaviy xususiyatlari va ilmiy imkoniyatlarini to'liq hisobga olmaydi. Xalqaro amaliyotda ham baholash mezonlari fan sohalarining nashr qilish va iqtibos olish xususiyatlariga muvofiqlashtiriladi.¹⁸

TOP-1000 toifasida **Top 10% va Top 1% nashrlar, yirik xalqaro loyihalar va yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlik** ustuvor bo'lishi lozim.

¹⁷ Times Higher Education. *World University Rankings 2025: Methodology*.

URL: <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/world-university-rankings-2025-methodology> (24.07.2026).

¹⁸ Times Higher Education. *World University Rankings by Subject 2026: Methodology*.

URL: <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/world-university-rankings-subject-2026-methodology> (24.07.2026).

Amaliy toifada **ishlab chiqarish va iqtisodiyot tarmoqlari muammolariga qaratilgan tadqiqotlar, sanoat hamkorligi va amaliy natijalar** rag'batlantirilishi zarur.

Tibbiyot toifasida **klinik va biotibbiy tadqiqotlar sifati, tadqiqot etikasi, ma'lumotlar ishonchliligi va xalqaro tibbiy markazlar bilan hamkorlikka** ustuvor ahamiyat berilishi lozim.

Ijtimoiy-gumanitar toifada nashrlar soni bilan birga **tadqiqotlarning jamiyat va davlat siyosati uchun ahamiyati** hamda **milliy ma'lumotlarni xalqaro ilmiy muhokamaga olib chiqish** salohiyati baholanishi zarur.

Ijod (sport) toifasida Scopus nashrlari yagona mezon bo'lmasligi, ijodiy ishlar, ko'rgazmalar, sahna asarlari, sport natijalari, uslubiy ishlanmalar va amaliy hissa ekspert bahosi asosida hisobga olinishi lozim.

OTTlar ilmiy rivojlanish bosqichiga ko'ra **yetakchi, barqaror rivojlanayotgan, nashrlar faolligi cheklangan** va **Scopus tashkilot profili shakllanmagan** guruhlariga ajratilishi mumkin. Har bir guruh uchun boshlang'ich holat va mavjud salohiyatga mos ko'rsatkichlar belgilanishi zarur.

Tabaqalashtirilgan yondashuv talablarni yengillashtirishni emas, ularni OTTning vazifasi, fan yo'nalishi va rivojlanish bosqichiga muvofiq belgilashni anglatadi.

XII. YAKUNIY XULOSA

Mazkur sharhda O'zbekistonga affiliatsiyalangan ilmiy nashrlarning 2023–2025 yillardagi dinamikasi hamda 2025 yil milliy reyting qamrovidagi OTTlarning **Scopus** natijalari kompleks baholandi.

Birinchidan, Scopus bazasida indekslangan takrorlanmaydigan nashrlar soni 2023 yildagi **7 151 tadan** 2025 yilda **10 771 taga** yetib, **50,6 foizga** oshgan.

Ikkinchidan, Q1 nashrlari **168,8 foizga**, Top 10% nashrlari **155,8 foizga** ko'paygan.

Biroq kvartillari aniqlangan nashrlarning **46,6 foizi** Q1 va Q2, **53,4 foizi** Q3 va Q4 jurnallariga to'g'ri kelgan, Top 1% nashrlari esa **91 tadan 78 taga** kamaygan. Demak, eng yuqori ta'sirli natijalarni barqaror shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Uchinchidan, OTTlar natijalari ularning toifasi, miqyosi va fan yo'nalishiga qarab farqlangan.

Umumiy nashrlar soni bo'yicha **ijtimoiy-gumanitar**, bir OTTga to'g'ri keladigan o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha esa **TOP-1000 toifasi** yetakchilik qilgan. Shu bois baholashda mutlaq sonlar bilan birga tashkilot miqyosi, PO'T va sohaviy xususiyatlar hisobga olinishi lozim.

To'rtinchidan, milliy ilmiy yetakchilik ko'p o'lchovli bo'lib, **nashrlar hajmi, Q1, Top 10%, Top 1%** va **nisbiy ilmiy natijadorlik** bo'yicha turli OTTlar yetakchilik qilgan.

Yetakchi 10 ta OTT barcha nashrlarning **45 foizini** shakllantirgani **ilmiy faol tashkilotlar doirasini kengaytirish** zarurligini ko'rsatadi.

Beshinchidan, ma'lumotlar qamrovi reyting ishonchliligiga bevosita ta'sir qiladi. Respublika bo'yicha 10 771 ta takrorlanmaydigan nashr bilan 105 ta OTTning Scopus tashkilot profillaridagi **18 424 ta** nashr yig'indisini to'g'ridan-to'g'ri qiyoslab bo'lmaydi, chunki bitta nashr bir nechta OTT affiliatsiyasida hisoblanishi mumkin.

Shuningdek, 63 ta OTTda **Scopus tashkilot profili** mavjud emasligi affiliatsiya ma'lumotlari va profillarni tartibga solish zarurligini ko'rsatadi.

Oltinchidan, nashrlar o'sishi ilmiy halollik va natijalar ishonchliligi bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Retraksiya qilingan nashrlar ijobiy ko'rsatkichlardan chiqarilishi, biroq har bir holat sababi va mas'uliyat darajasi aniqlanmasdan OTTga avtomatik salbiy baho berilmasligi kerak.

Tahlilning markaziy xulosasi shuki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi ilmiy nashrlarni miqdoriy ko'paytirish bosqichidan ularning sifati, ta'siri va ishonchliligini tizimli boshqarish bosqichiga o'tmoqda.

Keyingi vazifa yuqori ta'sirli va amaliy ahamiyatli tadqiqotlarni barqaror shakllantirish hamda bunday salohiyatga ega OTTlar doirasini kengaytirishdan iborat.

SCOPUS TASHKILOT PROFILI MAVJUD BO'LMAGAN OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI RO'YXATI

(2026 yil 30 iyun holatiga)

Mazkur ilovada tahlil davrida **Scopus** tashkilot profili aniqlanmagan **63 ta** OTT ro'yxati keltiriladi. Scopus tashkilot profilining mavjud emasligi OTT professor-o'qituvchilarida Scopus bazasida indekslangan ilmiy nashrlar umuman mavjud emasligini anglatmaydi. Ayrim nashrlar muallif profillarida aks etgan, ammo yagona tashkilot profili doirasida birlashtirilmagan bo'lishi mumkin.

No	OTT nomi	Toifa
1	«MIFI» Milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filiali	Amaliy
2	«MISiS» Milliy tadqiqot texnologiya universitetining Olmaliq shahridagi filiali	Amaliy
3	Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali	Amaliy
4	D.I. Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent filiali	Amaliy
5	IT-Park University	Amaliy
6	Nukus davlat texnika universiteti	Amaliy
7	Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti	Amaliy
8	Toshkent kimyo-texnologiya institutining Yangiyer filiali	Amaliy
9	Toshkent shahridagi Adju universiteti	Amaliy
10	Toshkent shahridagi Puchon universiteti	Amaliy
11	Japan Digital University	Amaliy
12	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali	Amaliy
13	Urganch davlat tibbiyot instituti	Tibbiyot
14	Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti	Tibbiyot
15	Central Asian Medical University	Tibbiyot
16	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti	Tibbiyot
17	Qozon federal universitetining Jizzax shahridagi filiali	Tibbiyot

18	N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetining Toshkent filiali	Tibbiyot
19	Rossiya Tashqi ishlar vazirligi Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutining (MGIMO) Toshkent filiali	Ijtimoiy-gumanitar
20	TEAM University	Ijtimoiy-gumanitar
21	Varshava biznes va amaliy fanlar universitetining («Collegium Humanum») Andijon filiali	Ijtimoiy-gumanitar
22	«MEI» Milliy tadqiqot universitetining Toshkent filiali	Ijtimoiy-gumanitar
23	«TMC» instituti	Ijtimoiy-gumanitar
24	A.I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent filiali	Ijtimoiy-gumanitar
25	Andijon davlat chet tillari instituti	Ijtimoiy-gumanitar
26	Buxoro innovatsion universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
27	Buxoro xalqaro universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
28	Fargʻona shahridagi Koreya xalqaro universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
29	G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali	Ijtimoiy-gumanitar
30	Iqtisodiyot va pedagogika universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
31	Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti	Ijtimoiy-gumanitar
32	Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti	Ijtimoiy-gumanitar
33	Fargʻona shahrida «Riga Nordic University»ning filialini	Ijtimoiy-gumanitar
34	«Millat umidi» universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
35	Navoiy innovatsiya instituti	Ijtimoiy-gumanitar
36	Oriental universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
37	Osiyo texnologiyalar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar

38	O'zbekistondagi Sharda universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
39	Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti	Ijtimoiy-gumanitar
40	Profi University	Ijtimoiy-gumanitar
41	Qarshi xalqaro universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
42	Samarqand davlat pedagogika instituti	Ijtimoiy-gumanitar
43	«SAMBHRAM» universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
44	Stars International University	Ijtimoiy-gumanitar
45	Toshkent gumanitar fanlar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
46	Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
47	Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
48	British Management University in Tashkent	Ijtimoiy-gumanitar
49	Turkiya iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent filiali	Ijtimoiy-gumanitar
50	«Turon» universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
51	Urganch RANCH texnologiyalar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
52	«Vatan» universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
53	Xalqaro innovatsion universitet	Ijtimoiy-gumanitar
54	«Yangi asr» universiteti	Ijtimoiy-gumanitar
55	S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universitetining Toshkent shahridagi filiali	Ijod (sport)
56	O'zbekiston davlat konservatoriyasi	Ijod (sport)
57	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi	Ijod (sport)
58	Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti	Ijod (sport)

59	Yunus Rajabiy nomidagi O'zbekiston milliy musiqa san'ati instituti	Ijod (sport)
60	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali	Ijod (sport)
61	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filiali	Ijod (sport)
62	O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali	Ijod (sport)
63	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali	Ijod (sport)

Manba: *Scopus* ma'lumotlari asosida Milliy agentlik hisob-kitoblari.

MILLIY REYTING TALABLARIGA MUVOFIQ REYTINGDA ISHTIROK ETMAYDIGAN OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI RO'YXATI

Oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq, **faoliyat yuritayotganiga uch yil to'lmagan yoki bitiruvchilari mavjud bo'lmagan 32 ta OTT** 2025 yil yakunlari bo'yicha milliy reytingda ishtirok etmaydi. Ularning **23 tasida bitiruvchilar mavjud emas, 9 tasining faoliyat davri esa uch yilga to'lmagan.**

No	OTT nomi	Toifa	Sabab
1	Cyber University	Amaliy	Faoliyat muddati 3 yildan kam
2	Sankt-Peterburg davlat universitetining Toshkent filiali	Amaliy	Bitiruvchilar mavjud emas
3	Acharya universiteti	Amaliy	Bitiruvchilar mavjud emas
4	Al-Xorazmiy universiteti	Amaliy	Faoliyat muddati 3 yildan kam
5	Digital University	Amaliy	Bitiruvchilar mavjud emas
6	PDP University	Amaliy	Bitiruvchilar mavjud emas
7	Samarqand xalqaro texnologiya universiteti	Amaliy	Bitiruvchilar mavjud emas
8	Piza universitetining (Italiya) Toshkentdagi filiali	Amaliy	Bitiruvchilar mavjud emas
9	Impuls Tibbiyot Instituti	Tibbiyot	Bitiruvchilar mavjud emas
10	EMU-University	Tibbiyot	Bitiruvchilar mavjud emas
11	Farmatsevtika texnika universiteti	Tibbiyot	Bitiruvchilar mavjud emas
12	Toshkent davlat tibbiyot universitetining Chirchiq filiali	Tibbiyot	Faoliyat muddati 3 yildan kam
13	Tashkent Metropolitan University	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
14	Abu Rayhon Beruniy universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Faoliyat muddati 3 yildan kam
15	«Ipak yo'li» innovatsiyalar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
16	M. Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universitetining Chirchiq shahridagi filiali	Ijtimoiy-gumanitar	Faoliyat muddati 3 yildan kam

17	Oxus universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Faoliyat muddati 3 yildan kam
18	Perfect universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
19	«Sarbon» universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
20	Sharq universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Faoliyat muddati 3 yildan kam
21	Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
22	Toshkent shahridagi Amerika texnologiya universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Faoliyat muddati 3 yildan kam
23	University of Science and Technologies	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
24	Urganch innovatsion universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
25	Xalqaro ijtimoiy innovatsiyalar universiteti	Toifa mavjud emas	Faoliyat muddati 3 yildan kam
26	Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
27	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
28	Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
29	Tashkent International University	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
30	Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
31	University of Business and Science	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilar mavjud emas
32	N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetining Toshkent filiali	Tibbiyot	Bitiruvchilar mavjud emas

Manba: milliy reyting ma'lumotlari asosida Milliy agentlik hisob-kitoblari.

FOYDALANILGAN MANBALAR

Milliy normativ va statistik manbalar

1. Milliy agentlik. Oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingini yuritish to'g'risidagi nizom (Adliya vazirligida 2026 yil 28 fevralda 3783-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan).

2. Elsevier. **Scopus** va **SciVal** ma'lumotlar bazalaridagi O'zbekiston va OTTlarga tegishli ilmiy nashrlar to'g'risidagi ma'lumotlar, 2023–2025 yillar. Ma'lumotlar 2026 yil 30 iyun holatiga ko'ra.

3. Milliy agentlik. OTTlarning PO'T va toifalari bo'yicha idoraviy ma'lumotlar, 2025 yil.

Xalqaro metodologik manbalar

4. QS Quacquarelli Symonds. *QS World University Rankings: Methodology*.

URL: <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings/methodology> (24.07.2026).

5. Times Higher Education. *World University Rankings 2025: Methodology*.

URL: <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/world-university-rankings-2025-methodology> (24.07.2026).

6. Times Higher Education. *World University Rankings by Subject 2026: Methodology*.

URL: <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/world-university-rankings-subject-2026-methodology> (24.07.2026).

7. Elsevier. *CiteScore Journal Metric – Frequently Asked Questions*.

URL: https://service.elsevier.com/app/answers/detail/a_id/30562/supporthub/Scopus/ (24.07.2026).

8. Elsevier. *Research Metrics in SciVal: Methods and Use*.

URL: https://supportcontent.elsevier.com/RightNow%20Next%20Gen/SciVal/ACAD_RL_ElsevierResearchMetricsBook_WEB.pdf (24.07.2026).

9. Hicks D., Wouters P., Waltman L., de Rijcke S., Rafols I. *Bibliometrics: The Leiden Manifesto for Research Metrics*. Nature. 2015. Vol. 520. P. 429–431.

DOI: <https://doi.org/10.1038/520429a>.

10. San Francisco Declaration on Research Assessment. *Read the Declaration*.

URL: <https://sfdora.org/read/> (24.07.2026).

11. Research Excellence Framework. *Submitting Practice Research Outputs to REF 2021*.

URL: <https://2021.ref.ac.uk/media/1238/submitting-practice-research-outputs-to-ref2021.pdf> (24.07.2026).

Ilmiy halollik va retraksiya bo'yicha manbalar

12. COPE Council. *COPE Retraction Guidelines*. Version 2. 2019.

DOI: <https://doi.org/10.24318/cope.2019.1.4>.

13. Crossref. *Retraction Watch*.

URL: <https://www.crossref.org/documentation/retrieve-metadata/retraction-watch/> (24.07.2026).

14. Times Higher Education. *THE World University Rankings 2024: Q&A – APAC Session*.

URL: https://www.timeshighereducation.com/sites/default/files/wur_mc_-_apac_qa.pdf (24.07.2026).

Scopus tashkilot profillarini boshqarish bo'yicha manbalar

15. Elsevier. *About the Institution Profile Wizard*.

URL: https://service.elsevier.com/app/answers/detail/a_id/25554/supporthub/Scopus/ (24.07.2026).

16. Elsevier. *How Do I Use the Institution Profile Wizard?*

URL: https://service.elsevier.com/app/answers/detail/a_id/25553/supporthub/Scopus/ (24.07.2026).

17. Elsevier. *What Is the **Scopus** Affiliation Identifier?*

URL: https://service.elsevier.com/app/answers/detail/a_id/11215/supporthub/Scopus/ (24.07.2026).

Muallif: *Suleymanov Ruslan*

Lavozimi: *Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari reytingini yuritish guruhi rahbari*

Muallif: *Mullaev Aziz*

Lavozimi *Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari reytingini yuritish guruhi bosh inspektori*

Muallif: *Mahkamov Adhamjon*

Lavozimi *O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari reytingini yuritish guruhi bosh inspektori*



 +998 55 505 30 30

 info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

   @nqaaeuz

 @nqaaeuzbot